

2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI



Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

2024-yil
4-yanvar
payshanba

№ 1 (4643)

Postda

На посты

O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

KIM VATANGA YORDIR, VATAN ANGA YOR

Bulbulga tikondin yetsa-da ozor,
Unga aziz erur shu joy, shu gulzor.
Yurtim, bulbullaring nafasin tuydim,
Kim Vatanga yordir, Vatan anga yor.

Muhabbat iymonli har dil ziyosi,
Ko'nglimga o't solsa bir gul hayosi.
Yordin diyorimni ortiq sevmasam,
Kuysin menday oshiq ikki dunyosi.

Mayli, bog'laringda ter to'kay tinmay,
Mayli, yashay bir zum rohat ne bilmay,
Boshimdan zar to'kib, tillo sochsa-da,
O'zgaga bir siqim tufrog'ing bermay.

Mehring – yuragimning nuri-quyoshi,
Tegsa malham deyman shu zamin toshi.
Mayli go'ja bo'lsin, mayli u yovg'on,
Men uchun eng totli shu yurtning oshi.

Marding shod qarshilar har sinov onni,
Bir kun menden so'rsang shu aziz jonni,
Tanimni kalxatlar nimtalasinlar,
Magar baxt demasam men bu imkonni.

Erking, muhabbating dilga oqmasa,
Sening qayg'ularing ko'nglim yoqmasa,
Rozimasman agar ko'zim tug'ingni
Qur'onday muqaddas bilib, boqmasa.

Senga ko'tarilgan u qo'llar sinsin,
Undayin yurakning dukuri tinsin,
Bahoringni hech vaqt urmasin ayoz,
Senga tushar qirov ko'zimga insin.

Yov kelsa, kamoning, yoying bo'lay man,
Belingga bog'langan shoying bo'lay man,
Peshonamga bitmish yorlaqab tanfim,
Faqat peshonamda seni ko'ray man!

Minhojiddin MIRZO.



2024-YIL – YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

YANGI MARRALAR SARI CHORLAYDI

Prezidentimizning Yangi yil tabrigida 2024-yil — Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili sifatida e'lon qilindi. Demak, yosh avlod vakillari ning bilim olishi, kasb-hunar egallashi hamda hayotda o'z o'rnnini topishiga qaratilgan islohotlar yanada kengroq ko'lama davom ettiriladi.



Davlatimiz rahbarining xorijdan investitsiya jalb etish, tadbirkorlarga imkoniyatlar yaratish, ilm-fan, innovatsiya va IT sohalarini rivojlantirish, «yashil iqtisodiyot» va raqamli texnologiyalarni joriy qilishga oid tashabbuslari mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlanтиш, aholining turmush farovonligini yuksaltirishga omil bo'ladi. Tabiiyki, bu o'zgarishlar yosh avlod vakili sifatida barcha yurtdoshlarimiz qatori menga ham katta quvonch bag'ishladi.

Sababi yoshlар uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan samarali foydalanayotgan minglab yoshlар qatorida kamina ham bor. Chunonchi, 2023-yilning fevral oyida huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari va harbiy xizmatchilar o'rtasida o'tkazilgan «Zakovat» ko'rik-tanlovingin viloyat bosqichida boshchiligidagi

«Jasorat» jamoasi 1-o'rinni egalladi. Xuddi shunday, mart oyida keng jamoatchilik vakillari ishtirokida uyushtirilgan «Besh tashabbus olimpiadasi»ning viloyat bosqichida shaxmat bo'yicha 1-o'rinni egalladim.

Bundan tashqari, O'zbekiston yoshlар ittifoqi tashabbusi bilan bo'lib o'tgan «Eng namunali boshlang'ich tashkilot yetakchisi» ko'rik-tanlovingin viloyat bosqichida 1-o'ringa munosib topildim.

Aytish joizki, davlatimiz rahbari hamda IIV rahbaryatinining qobiliyatlarimizni ro'yobga chiqarish, intilish va qiziqishlarimizni rag'batlantirish borasidagi g'amxo'rliги biz — yoshlarni yangi-yangi marralar sari chorlaydi.

**Islom TOSHPO'LATOV,
katta leytenant.**

Jizzax viloyati.



2024-yilda yurtdoshlarimiz xonardonidan quvonch, xotirjamlik, omad va baxt arimasin. Dasturxonningiza fayz-u baraka bersin. Umringiz uzun, qalbingiz hamisha butun, chehrangiz porloq bo'lsin. Qilayotgan har bir ezgu ishimizni Yaratganning o'zi qo'llasin. Bayram kayfiyati yil davomida siz azizlarni aslo tark etmasin!

**Munisa RIZAYEVA,
xonanda.**

ULUG' MAQSADLARGA ERISHAJAKMIZ

Yillar inson hayotida beiz ketmaydi. Ortda qolgan 2023-yil mening hayotimda yoqimli, unutilmas taassurotlar qoldirgani bilan yodda qoldi.

Onam – podpolkovnik Gulandom Elmurodova ichki ishlар organi xodimi. Xizmat faoliyatini bundan yigirma yil muqaddam Qashqadaryo viloyati IIB huzuridagi Qo'riqlash boshqarmasida boshlagan. O'tgan yillar davomida viloyat ichki ishlар organlarida turli lavozimlarda ishladi. Ayni paytda viloyat IIB boshlig'i o'rincbosarining tashkiliy shtat ishlari bo'yicha yordamchisi lavozimida xizmat qilmoqda.

Bolaligimdan onamning kasbiga havas qilib ulg'aydim. IIV Qashqadaryo akademik litseyini tamomlagach, o'tgan yili vazirlik Akademiyasiga hujjatlarimni topshirdim. Litseyda olgan bilmiram, qolaversa, Ichki ishlар vazirligi tomonidan berilgan tavsiyanoma bilan kursantlik baxtinga musharraf bo'ldim. Bu, hech shubhasiz, mamlakatimizda biz, yoshlarga qaratilayotgan yuksak e'tibor mevasidir.

Prezidentimizning xalqimizga yo'ilagan Yangi yil bayrami tabrigini diqqat bilan tingladim. Unda, ayniqsa, 2024-yilning mamlakatimizda «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili» deb e'lon qilingani meni g'oyat xursand qildi. Demak, yoshlarga qaratilayotgan e'tibor bu yil yanada kuchayadi.

Bayram tabrigida yangragan ushbu so'zlar ham e'tiborimdan chetda qolmadи: «Albatta, hayot bor ekan, uning yutuq va quvonchlari, tashvish va muammolari ham bo'lishi tabiiydir. Ammo inson va xalq aql-zakovati, halol mehnati, mustahkam irodasi bilan har qanday



sinovlardan munosib o'tishga qodir». Haqiqatan ham, hayot bir tekis kechmasligi mumkin. Lekin ulug'vor maqsadlar sari endi otlanayotgan biz, yoshlар har qanday qiyinchilikni yengib o'ta olishimizga ishonamiz. Chunki katta hayot yo'lida bizni doim qo'llab-quvvatlab turadigan yaqinlarimiz, xalqimiz va muhtaram Yurtboshimiz bor.

**Durbek AZIMOV,
IIV Akademiyasi birinchi
bosqich kursanti.**



Bu yil «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili» deb e'lon qilinganligi shaxsan meni juda quvontirdi. Sababi, o'zim ham aynan Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi vakiliman.

Bu yilga umid bog'lab, juda katta natijalarini kutyapmiz. Davlatimiz rahbari olib borayotgan oqilona siyosatni qo'llab-quvvatlagan holda, tadbirkorlikni, biznesni rivojlantirishga qaratilgan yangidan-yangi g'oyalarni hayotga tatbiq etib, katta-yu kichik tadbirkorlar bir maqsad yo'lida jipslashsa, o'ylaymanki, kutilgan natijalarga tezroq erishamiz.

Unutmaylikki, tadbirkorlik, biznes rivojlansa, davlat byudjetining salmog'i ham oshadi.

**Bobur RASULEV,
Xalq deputatlari Toshkent shahar kengashi deputati.**

 YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

SHIJOATLI KAPITAN



...Oilada o'g'il farzand yo'qligini bildirmaslik uchun Sevara bolaligida-noq otasi Abdurashid akaga dalda bo'lib, har bir ishda ko'maklashardi. Shu ma'noda, otasining har tomonlama qo'llab-quvvatlashi, o'zidagi qat'iyat va iroda uning oldiga katta maqsadlar qo'ygani, shubhasiz.

Bolalikdagi orzulari sabab shijoatli qiz 2014-yilda Toshkent avtomobil va yo'llar institutini muvaffaqiyatli tamomladi. Insonda biror sohaga qiziqish paydo bo'lsa, maqsadga erishish yo'lida qilingan harakat, albatta, mevasini beradi. Sevaraning orzusi amalga oshib, ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 2016-yilda viloyat IIB Tashkiliy-inspektorlik bo'limida ish yurituvchi lavozimidan boshladi. Kasbiga bo'lgan mehr, o'z ustida ishlashi sabab tez orada bo'lim boshlig'i lavozimiga tayinlandi. Shundan so'ng Mingbulloq tumani IIB HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha inspektori lavozimida ishlab, ayollarning haq-huquqlarini himoya qilish, ular o'rtaida jinoyatchilikning oldini olishga munosib hissa qo'shdidi.

U hozir viloyat IIB JXX YHXB umumiy va o'rta maxsus ta'llim muassasalari bilan hamkorlik qilish guruhi katta inspektori sifatida faoliyat ko'rsatmoqda. Bolalar bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida viloyat Maktabgacha va maktab ta'llimi boshqarmasi bilan hamkorlikda «Diqqat: yo'lovchi!», «Diqqat: bolalar!», «Yashil chiroq», «Yo'l harakati qoidalari bilimdoni», «Eng namunalni yo'lovchi» kabi targ'ibot tadbirlarini o'tkazishda faoliik ko'rsatmoqda.

– Bolalarga yo'llarda harakatlanish qoidalari o'rgatmas ekanmiz, barcha sa'y-harakatlarimiz besamar ketishi mumkin, – deydi kapitan Sevara Hoshimova kuyunchaklik bilan.

– Shu bois ular o'rtaida targ'ibot tadbirlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratyapmiz. Bu soha xodimlaridangina emas, ota-onalar, keng jamoatchilik vakillaridan ham katta mas'uliyat talab etadi...

Darvoqe, o'tgan yili «Yashil chiroq – 2023» musobaqasida Kosonsoy tumanidagi 8-maktab o'quvchilarining «Piyodalar» jamoasi respublikada faxrli uchinchi o'rinni egallashida ham kapitan Sevara Hoshimovaning munosib hissasi bor.

Sevara Hoshimova oilada sevikli yor, sarishtali beka. Turmush o'rtog'i Bekzod Siddiqov tadbirkor. U Sevarani har tomonlama qo'llab-quvvatlaydi. Oiladagi ahillik, totuvlik va o'zaro hurmat tufayli qahramonimiz jamiyatda ham o'z o'rnnini topib bormoqda.

Gulchehra BUVAMIRZAYEVA,
o'z muxbirimiz.
Namangan viloyati.


 QILNI QIRQ YORIB

SEYFDAGI BARMOQ IZLARI

Ertalab Hazorasp buyum bozoridagi savdo do'koniga kelgan Karim To'rayev (ism-shariflar o'zgartirildi) eshikning ochiq holda tur-ganini ko'rib, shoshib qoldi. Kutilmagan bu holatdan xavotirlangancha do'kondagi mahsulotlarni ko'zdan kechi-rib chiqdi. Nazarida hammasi risoladagidek. Ammo, keyin qarasa, burchakdagi seyf ichida bo'lgan 25 million so'm joyida yo'q...

Tergov-tezkor guruhi xodimlari jinoyat joyini sinchkovlik bilan o'rgana boshlashdi. Tuman IIB EKG katta eksperti, leytenant Sanjar Ibragimov hodisa joyida qoldirilgan izlardan namunalar olib, viloyat IIB Ekspert-kriminalistika markaziga yubordi.

Ekspertlar olingan namunalarni tizim bazasidagi qo'l-barmoq izlari bilan solishtirib chiqdi. Afsuski, bu izlar tizim bazasida mavjud emas edi.

Tergov-tezkor guruhi o'g'rilik muqaddam sudlanmagan shaxs tomonidan sodir etilgan, degan xulosaga keldi. Shu bois asosiy e'tibor jinoyat sodir qilishga moyil

shaxslarning ha-yot tarzini o'rganishga qaratildi. Bozor hududida obodonlashtirish va tozalash ishlari, aravakashlik bilan shug'ullanuvchi fuqarolar bilan ham suhbatlashildi. Ekspert esa ularning qo'l-barmoq izlariidan namunalar olib, belgilangan tartibda o'rganib chiqdi. Ana shundan so'ng barchasi ayon bo'ldi. Hodisa joyidagi qo'l-barmoq izlari aravakashlik bilan shug'ullanuvchi tuproqqa'lalik T.P. va O.B.ga tegishli bo'lib chiqdi.

Gumon qilinuvchi sifatida tuman IIbga olib kelingan bu kimsalar qilmishini tan olmasdan, turli bahonalarni o'ylab topib, tergovchini chalg'itmoqchi bo'lishdi. Ammo dastlabki surishtiruvlardanoq ularning xatti-harakatlari va ko'rsatma-



larida bir-birini inkor etuvchi holatlar sezilib qoldi. Shundan so'nggina ular aybini tan olib, qilmishidan pushaymon ekanligini bildirishdi.

– Jinoyatga qo'l urgan kishi qilmishiga yarasha javob berishi lozim, – deydi leytenant Sanjar Ibragimov. – Jazo muqrarrarligini ta'minlash jarayonida barcha sohaviy xizmatlar

xodimlari qatori biz ham faol qatnashyapmiz. O'tgan yili 158 marotaba voqeja joyiga chiqib, qo'l-barmoq izlari bo'yicha 48 ta ekspert-tadqiqot ishini olib bordik. Shuningdek, 337 marta tergov harakatlarida, 312 marta tezkor-qidiruv tadbirlarida ishtirot etdik.

Tuman hududida jinoyat hamda huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish, mahallalarni jinoyatdan xoli hududlarga aylantirish bo'yicha o'tkazilayotgan targ'ibot tadbirlarida guruh ekspertlari ham faol ishtirot etib, fuqarolarning o'z mol-mulkiga e'tiborli bo'lishlari yuzasidan

tushuntirishlar berib borishmoqda. Amalga oshirilayotgan hamkorlikdagi bu kabi sa'y-harakatlar jinoyatlarning barvaqt oldini olishda muhim o'rinn tutmoqda.

Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.
Xorazm viloyati.

ТРЕТИЙ СЕКТОР

РЕШАЯ ПРОБЛЕМЫ ГРАЖДАН

Наряду с обеспечением правопорядка и борьбой с преступностью органы внутренних дел вносят большой вклад в решение социальных проблем населения, ускорение экономического развития страны.

В Джизакской области в прошлом году при содействии рабочих групп 3-го сектора реализовано 118 инвестиционных проектов. Оказана поддержка в представлении субъектам предпринимательства кредитных средств в объеме 138 миллиардов 645 миллионов сумов, что позволило обеспечить занятость 36 тысяч 272 лиц.

Для налаживания предпринимательства 1 131 состоящей в «женской тетради» жительнице области помогли в выделении кредитов. Разовая материальная помощь на общую сумму

стю. Отремонтированы дома трех малообеспеченных женщин. В общей сложности решены социально-бытовые проблемы 1 106 соотечественниц.

дов 157 миллионов сумов. Трудоустроены 912 юношей и девушек из «молодежной тетради». Еще 65 человек из этой категории получили начальные средства для



ших обращений населения заасфальтировано 169 километров внутренних дорог, еще на 208 километрах дорог уложено гравийное по-



1 миллиард 154 миллиона сумов оказана женщинам, ухаживающим за лицами с инвалидно-

стью, кто включен в «железную тетрадь», оказана помощь на общую сумму 6 миллиар-



открытия собственного дела, 242 – обзавелись земельными наделами для занятия сельским хозяйством, субсидии под приобретение оборудования и инвентаря для дальнейшей само занятости получило свыше 200 человек. Оплачены контракты 716 малообеспеченным студентам.

Руководители секторов провели 656 выездных приемов. На основании поступив-

крытие. Планово обновляются столбы и линии электропередачи, трансформаторы, проложены водо- и газопроводы. При содействии спонсоров построены дома для семи малообеспеченных граждан, отремонтировано жилье 258 нуждающихся.

Работа в третьем секторе продолжается.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.
Джизакская область.**

 INSON QADRI ULUG'

«OTAM BILAN FAXRLANAMAN»

Bahor kelib, borliq yashillikka burkangan, odamlarga yaxshilik istagan dillar zavqiyob palla edi. Ammo ona tabiatning ana shunday go'zalligiga qaramasdan, qalbida yovuzlik ungan bir guruh terrorchilar 2004-yilning 28-29-mart kunlari Toshkent shahri va Buxoro viloyatida qo'poruvchilik harakatlarni amalga oshirgani haligacha vatandoshlarimiz qalbini larzaga soladi.

Manfur kimsalarning jirkanch xatti-harakatlari oqibatida ko'plab begunoh insonlar, alalxusus, yurt ravnraqi va uning tinchlik-xotirjamligi yo'lida bor kuch-g'ayrati va salohiyatini ayamaydigan zabbardast yigitlar ham hayot bilan vidolashdi. Toshkent viloyatinning Parkent tumani da dunyoga kelgan militsiya starshinasi Vahobidjon Nuriddinov ham xalq osoyishtaligi yo'lida jonini nisor etgan mardlardan biri edi.

Safdoshlari bilan Qibray tumanidagi «Qoramurt» blok-postiga xizmatga yuborilgan Toshkent viloyati IIB Yo'l harakati xavfsizligi bosh-qarmasi yo'l-patrul xizmati batalyonining safarbarlik guruhi inspektori poytaxtimizda yuz bergen noxush voqealar bois ancha sezgir va hushyor edi. Transport vositalarini sinchkovlik bilan tekshirayotgan Vahobidjon «Tiko»ning salonini ko'zdan kechirayotib, xavfli qurollar va turli qo'poruvchilik ashyolarini yashirin ravishda shaharga olib kirayotgan g'ala-mislarni aniqlaydi. Siri fosh bo'lganligini sezgan manfur kimsalardan biri zudlik bilan

tanasidagi portlovchi moslamani harakatga keltirib yuboradi. Vahobidjon hayotini qurban qilib bo'lsa-da, katta xatarning oldini olishga munosib hissa qo'shadi.

– O'sha mash'um kunda udan chiqib ketayotib, negadir o'ychan holatda ortiga qaytdi, – deydi turmush o'rtog'i Dilorom Nuriddinova.

– Xuddi ko'ngli biror narsani sezgandek, «otanonam va bolalarimga yaxshilab qara» degancha, xizmatga otlandi. O'sha tobda farzandlarimning otasini oxirgi marta ko'rayotganligim hecham xayolimga kelmagan edi.

O'z burchiga sodiq qolgan, ona Vataniga, xalqiga mehr-muhabbat va sadoqat bilan xizmat qilgan mard o'g'lonning o'limi o'zi tug'ilib o'sgan butun Nomdanak qishlog'i uchun og'ir judolik bo'ldi. Barcha yosh-u qari ko'ziga yosh olib, unga aza tutishdi.

– Bu foni yunyoda sir-dosh do'stingdan ajralishdan kattaroq fojia bo'lmasa ke-



organlariga imtiyozli ravishda xizmatga qabul qilindim, endilikda O'zbekiston milliy universitetida tahlil olish sharafiga tuyassar bo'ldim.

Kelajakda oliy ma'lumoti ofitsier bo'lishni maqsad qilgan A. Jumanov ustoz, iste'fodagi podpolkovnik Dilshod Yusupovdan sohaga oid bilim va ko'nkmalarni o'rganib, bugungi kunda ularning barchasini amaliyotda qo'llab kelmoqda.

Oilada ham o'z o'rniiga ega bo'lgan Abrorjon turmush o'rtog'i Ziyodaxon bilan Amirxon ismli o'g'lini tarbiyalab, voyaga yetkazmoqda. Kelajakda u ham otasi va bobosi kabi osoyishtalik posboni bo'lishni niyat qilgan.

Mixli SAFAROV,
o'z muxbirimiz.

rak, – deydi Vahobidjonning tengdoshi Zoir Temirboyev.

– Uning hayotlik chog'larida erishgan yutuq va muvaffaqiyatlari biz uchun ibrat bo'lib goldi.

Vafotidan so'ng mam-lakatimiz Prezidentining farmoniga binoan, «Jasorat» medali bilan mukofotlangan Vahobidjon Nuriddinovning sharaflı kasbini o'g'li davom ettirmoqda. Hozirda Tosh-

kent viloyati IIBB JXX YHXB videokuzatuv guruhi inspektori lavozimida xizmat qilayotgan safdor Abrorjon Jumanov otasi bilan haqli ravishda faxrlanishini aytди.

– Men vazirlik va davlatimiz rahbariyatidan behad minnat-dorman, – deydi Abrorjon.

– Chunki otamning kasbini egallashim uchun, dastlab, IV Ixtisoslashtirilgan maktab-internatiga, so'ngra ichki ishlar

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



O'tganlarning xayrli ishlari, jasoratini yodga olmoq va e'zozlamoq xalqimizga xos ezgu fazilatlardan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi IIV tomonidan Yangi yil bayrami arafasida xizmat vaqtida vafot etgan xodimlarning oila a'zolari holi dan xabar olindi.

Xususan, Mo'ynoq tumani IIB boshlig'i o'rnbosari, podpolkovnik O.Qasimov va tuman YHXB xodimlari xizmat vaqtida vafot etgan marhum Daniyar Qayirbayevning uyida bo'lib,



oila a'zolariga bayram sovg'alari topshirishdi.

O'z muxbirimiz.



Insondon oxir-oqibat faqat yaxshilik, mehr va yaxshi xotiralar qoladi. Shunday insonlar borki, garchi ular qorni to'q, egni but bo'lsa-da yana bir shirin so'z, mehrli e'tiborga muhtojdir. Shu boisdan Nukus shahridagi 7261-sonli harbiy qism tomonidan kemtik ko'ngillarni obod etish maqsadida xayriya tadbir tashkillashtirildi.

Xususan, harbiy qism komandirining tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha o'rnbosari, mayor O.Sh.Salimov boshchiligidida 26-kichik tumandagi «Ko'k



uzak», «Qumbiz avul», «Yosh avlod» makon fuqarolar yig'inida yashovchi Vatan himoyasi va el-yurt tinchligi yo'lida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari, xizmat burchini bajarish chog'ida nogiron bo'lib qolgan harbiylar, shuningdek, kam ta'minlangan oilalar hamda nogironligi bo'lgan 9 ta oilalarga harbiy qism harbiy xizmatchilari tomonidan xayriya tadbirlari o'tkazildi.

Abbos BEKNAZAROV,
kapitan.

 ЖЕНЩИНЫ В ПОГОНАХ

ДОСТОЙНАЯ ОЦЕНКА ОБЯЗЫВАЕТ



**Жулдиз УТЕНИЯЗОВА,
майор:**

– Законом «О защите женщин от притеснения и насилия» определены полномочия государственных органов, правоохранительных структур, институтов гражданского общества по защите прав и интересов женщин. Практическому претворению в жизнь норм данного За-

кона содействует отдел внутренних дел Кунградского района, где с 2019 года являюсь старшим инспектором ОПП службы общественной безопасности.

По территории и населению район является крупнейшим в Каракалпакстане. Он включает 39 сходов граждан, есть пограничный таможенный пост «Дагут-Ата», действует ряд промыш-

Меры по активному вовлечению в общественную жизнь представительниц прекрасного пола, созданию условий для раскрытия их потенциала дают свои положительные результаты. В органах представительной и государственной власти, хозяйственного управления все больше женщин выдвигаются на ответственные должности. В этом направлении принят ряд нормативно-правовых актов.

нению с предыдущим годом. Снизилось количество фактов мошенничества, краж, совершенных с участием женщин.

В минувшем году выданы охранные ордера 191 женщине, пострадавшей от притеснения и насилия. Благодаря разъяснительной и профилактической работе удалось примирить 127 супружеских пар. Только в четырех случаях выявлены факты игнорирования требований охранного ордера. В отношении виновных приняты необходимые меры.

Отрадно, что мой скромный труд был несколько раз отмечен по достоинству. В 2019 году была награждена Почетной грамотой Совета Министров Республики Каракалпакстан. В 2021 году министр внутренних дел Республики Узбекистан досрочно присвоил мне очередное звание майора.

Приложу все силы и знания, чтобы и впредь быть в числе лучших.

 ПРОФИЛАКТИКА – В ЦЕНТРЕ ВНИМАНИЯ

С ЗАБОТОЙ О ПОДРАСТАЮЩЕМ ПОКОЛЕНИИ

Сотрудники Управления обеспечения безопасного туризма УВД Кашкадарьинской области провели встречу с учащимися школы музыки и искусства города Шахрисабза, символично расположенной на аллее Амира Темура.

Выступившие на встрече высказали свои мнения относительно предупреждения преступности и правонарушений среди несовершеннолетних и молодежи, устранения причин и условий, способствующих этим неправомерным действиям, а также организации содержательного досуга молодежи.

Разъяснены негативные последствия увлечения неформальными течениями, пагубность пристрастия к употреблению наркотиков. В то время, как государство создает все необходимые условия для формирования гармонично развитого, духовно зрелого молодого поколения, подобные факторы могут перечеркнуть дальнейшую судьбу

несовершеннолетних, представляют угрозу для здорового общества.

Отмечено, что проявляя высокую сознательность, культуру, следуя законам гостеприимства, свойственным нашему народу, жители славного города, давшего миру гений Амира Темура, содействуют укреплению привлекательного имиджа страны, преемственности вековых традиций. Учащимся даны разъяснения, куда обращаться и как поступать в экстренных случаях. В свою очередь сотрудники управления всегда готовы прийти на помощь.

**Фахриддин ШАРИФОВ,
подполковник.**



ленных объектов, предприятий и организаций.

Благодаря целенаправленной работе в сотрудничестве с органами самоуправления граждан и общественностью преступность среди женщин в масштабе района существенно снижена.

К примеру, среди женщин в 2023 году преступность сократилась с 52 до 31 случая по срав-

 САМАРКАНДСКАЯ ОБЛАСТЬ

СЮРПРИЗ ДЛЯ ЮНЫХ ПАЦИЕНТОВ



Новый год – сказочный праздник. Он особенно любим детворой, ибо юные сердца всегда связывают с ним что-то особенное, загадочное, способное исполнить их желания.

Но не всем удается встретить Новый год в кругу семьи, в привычной обстановке. В их числе пациенты, проходящие курс лечения в Самаркандском областном детском многофункциональном медицинском центре.

Неожиданный сюрприз им преподнесли руководство и личный состав УКД ОВД города Самарканда. Они побывали в гостях у детворы, вручили подарки. У красочной елки радовали пациентов герои сказок и мультфильмов. Дед Мороз и Снегурочка также не скучились на подарки активным участникам новогоднего действия.

Соб. корр.

► 14-YANVAR – VATAN HIMOYACHILARI KUNI

SHARAFLI VAZIFA

Hayotdagi barcha ezgu orzu va maqsadlar inson qalbiga mazmunli mulohaza va tushuntirishlar orqali kirib boradi. I darajali serjant Vahobjon Qurbonovda ham ona Vatan himoyachisi bo'lish istagi chaqiriqqacha yoshlarni tayyorlash fani o'qituvchisi Usmonjon Latipovning askarlik mas'uliyati to'g'risidagi vatan-parvarlikka yo'g'rilgan so'zлari orqali jo bo'lgandi.

Yigitlik burchini IIQ Qorovul qo'shinlariga qarashli poytaxtimizdagi 7534-harbiy qismida o'tagan lavhamiz qahramoni mana 24 yildirki, mazkur harbiy qismida samarali faoliyat yuritib kelmoqda.

– Xizmatdagi barcha qiyinchilik va mashaqqatlarni yengib o'tishimda ustozim, istefodagi serjant Rustam Jaslikovning xizmatlari beqiyos bo'lgan, – deydi V. Qurbonov. – Uning sohaga oid o'rgatgan bilim va ko'nikmalari hamda maslahatlari bilan katta nazoratchi, guruh komandiri, endilikda esa qorovul boshlig'i lavozimida xizmat qilyapman.

Vahobjon Qurbonovning o'zi ham bugungi kungacha o'nlab shogirdlar yetishtirishga ulgurdi. III darajali serjantlar Sadriddin Ro'zimov, Feruz O'rionov hamda II darajali serjant Oybek Xushmurodov va kichik serjant Xurshid Boymurodov shular jumlasidandir.

Hozirda markaziy bazani qo'riqlash bataloni 1-o'qchi guruh qorovul boshlig'i lavozimida xizmat qilib kelayotgan Vahobjon Qurbonov qo'l ostidagi shaxsiy tarkibga har kuni yo'riqnomma o'tib, ularga xizmat vazifalarini tushuntiradi. Muntazam tarzda muammolari bilan qiziqib, ularni bartaraf etadi. Chunki Vatan himoyasiga shaylangan har bir harbiy xizmatchining ko'ngli xotirjam bo'lsa, ishida unum, natija bo'ladi.

Doimo kasbini ardoqlaydigan qahramonimizning xizmatlari vazirlik va davlatimiz tomonidan mun-



sib qadrlanyapti. 2016-yilda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan u Prezidentimiz farmoniga ko'ra «Jasorat» medali bilan taqdirlandi. Bundan tashqari, ipoteka krediti asosida yangi xonadonga ega bo'ldi, 25 foiz miqdoridagi to'lov imtiyozli ravishda qoplab berildi. To'ng'ich farzandi Sardorbek Hayitov Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga kvota asosida o'qisiga kirdi.

– Ko'plab yutuqlarga erishib kelayotgan I darajali serjant V. Qurbonova yosh harbiylar havas bilan qarashadi, – deydi mazkur batalyon komandiri, podpolkovnik Tursunboy Otajonov. – O'zining qat'iy irodasi va intilishlariga ishongan mahoratlari bu inson hech qachon maqsadlari yo'lida to'xtab qolmaydi, aksincha, doimo olg'a intiladi.

**Abduhamid OLLAYOROV,
kichik serjant.**

BADIHA

BOSHIM UZRA PARVOZ QILAR HUMO QUSHI

Bo'lajak harbiy journalist sifatida quadratli milliy armiyamiz saflarida muddatli harbiy xizmat o'tayotgan oddiy askarlar bilan ko'p bora suhbatlashganman. Har gal xalqimizning irodasi metindek mustahkam, qadamidan o't chaqnagan, mehri jo'shqin, Vatanimiz himoyasi yo'lida xizmat qilishga bel bog'lagan mard o'g'lonlari timsolida buyuk ajodolarimiz – Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur bobolarimizning munosib avlodlarini ko'raman.

Suhbat asnosida jangovar ruh, mardlik, jasorat ularning qon-qoniga, butun vujudiga singib ketganiga amin bo'laman. Shuning uchun o'quv mashg'ulotlarida, amaliy mashqlarda yuqori natijalarga erishyapti. Mahoratlarini oshirishlari uchun komandirlaridan, ustozlaridan ta'lim-tarbiya olishmoqda. Intiluvchanligi tufayli ular sport musobaqalarida turli ko'rik-tanlovlarda faxrli o'rinnlarni egallashmoqda.

Ularning aksariyati xizmatni shartnoma asosida davom ettirish orzusida. Chunki yurtini, ota-onasini, oilasini himoya qilishni oliy burchi deb bilishadi. «Vatanni qo'riqlar yigitning mardi» deb shunga aytishsa kerak-da.

Meni quvontirgan yana bir jihat askarlarimizning kitobxonligi bo'ldi. Ularning kitobga mehri o'zgacha. Aksariyati Temur tuzuklarini, zabardast o'zbek adiblarining asarlarini, jahon adabiyoti namunalarini sevib mutolaa qilishini aytishdi. Adabiyot ma'naviyat manbayidir. Ma'naviyati yuksak jangchini esa yengib bo'lmaydi.

Ko'pchiligi namunali xizmat qilgani uchun komandirlari tomonidan ota-onasiga tashakkurnomalar yuborilganini quvonch bilan so'zlashdi. Ular Yurtboshimiz tomonidan harbiy xizmatchilarga berilayotgan imkoniyatlar, imtiyozlar, yaratilayotgan shart-sharoitlardan mammunligini izhor qilishdi. Qurolli Kuchlarimizning nufuzi, obro'si kundan

HARBIY QISM «OQSOQOLI»

– Yoshligida shox-shabbadan quroq yasab, askar o'yinini o'y-namagan bola bo'lmasa kerak. Mening ham sevimli mashg'ulotim shu edi. Akalarim va ukam bilan tushda uxlamaslik uchun onamdan ruxsat so'rab shu o'yinni ermak qillardik. Hozir ham qo'shnilar o'sha sho'xligimizni eslatishadi, – deydi katta serjant Sherli Amanov.

Bolalikdagi orzusi ro'yobga chiqqan to'rt aka-uka ham endilikda harbiy soha vakillari. Ularning ota-onasi el-yurt tinchligi uchun xizmat qilayotgan farzандlari kamolidan baxtiyor.

Lavhamiz qahramoni IIQ Qorovul qo'shinlariga qarashli Navoiy viloyatida joylashgan 7532-harbiy qism komendantlik xizmati batalyoni komandirining moddiy ta'minot bo'yicha yordamchisi lavozimida xizmat qiladi. Qariyb 20 yil shu xizmat ortidan obro'-e'tibor orttirgan Sherli Amanov erishgan yutuqlari ortida timilsiz xizmat, izlanish va oila a'zolarining qo'llab-quvvatlashi yotganini ta'kidlaydi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida yigitlik burchini o'tagan Sherli shartnoma asosida mazkur


harbiy qismida xizmatni davom ettirdi. Unga harbiy sohada faoliyat olib borish qiyinchilik tug'dirmadi. Akalaridan o'rganganlari maqsadlariga erishishida zamin bo'lidi.

Xizmatdoshlari orasida «oqsoqla» nomini olgan katta serjant Sherli Amanov yosh harbiylar uchun qattiqko'l va talabchan ustoz bo'lish bilan birga, samimiy va mehribon inson ham. U shogirdlariga bilganlarini o'rgatishdan aslo charchamaydi.

Ona Vatan himoyasi yo'lida munosib hissa qo'shayotgan katta serjant Sherli Amanov 2022-yilda «Qo'shin a'llochisi» ko'krak nishoni bilan taqdirlangan.

**Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.**

Navoiy viloyati.



kunga oshib borishi asnosida askar bo'lish deyarli har bir yigitning orzusiga aylangan.

Ayrimlari yaqinlarini, qadrdon uyini juda sog'inishini ham yashirib o'tirishmadi. Onasi yopgan issiq nonlar tushiga kirishini aytishdi. Ayni paytda armiya safida juda ko'plab do'stlar orttirganini ham sevinib so'zlashdi. Jangovar do'stlik rishtalari esa juda mustahkam bo'ladi.

Har gal vatan himoyachilari bilan muloqotdan so'ng qalbimni g'urur tuyg'usi chulg'aydi. Axir, shunday ishonchli qalqonlaring borligidan g'ururlanmay, faxrlanmay bo'ladimi?! Bunday suhbatlardan keyin o'zimni juda baxtli his qilaman, go'yoki boshim uzra Humo qushi parvoz qilib yurganday tuyuladi. Nafaqat men, balki xalqimiz baxtli. Chunki uning mard, jasur, ko'ksi qalqon himoyachilari bor.

**Rushana ROZABOYEVA,
O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti talabasi.**

14-YANVAR — VATAN HIMOYACHILARI KUNI

YURTIMIZ QALQONLARI

Bugungi kunda II V Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlari tarkibida xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar timsoldida biz, avvalambor, chuqur bilim va intellektual salohiyatga, qat'iy iroda va mustahkam tayyor-garlikka ega bo'lgan mard va fidoyi insonlarni ko'ramiz.

Uarning o'z vazifasini sid-qidildan bajarayotganligi tufayli mamlakatimizdagi xalqaro aeroportlarda xavfsizlik ishonchli ravishda ta'minlanmoqda. Bunda podpolkovnik Sanjar Rajabov, mayorlar – Bahodir Ravshanov, Sanjar Mamarasulov, serjant Akmal Xoliqov, kichik serjantlar – Azamat Kurbanbayev hamda Iroda Utegenova kabi harbiy xizmatchilarimizning hissasi katta bo'lyapti.

O'tgan yili harbiy xizmatchilar o'rtaida o'tkazilgan «Dovyurak jangchi» intensiv sinovlarini muvafqaqiyatlaj bargan 19 nafar harbiy xizmatchi «Dovyurak jangchi» ko'krak nishoni egasiga aylandi. Shuningdek, o'tgan yilning 16–21-oktabr kunlari II V Birlashgan o'quv-dala markazida vazirlilikning harbiy xiz-



Sport sohasida ham erishilgan yutuqlar ham talaygina. O'tgan yilning 8–12-mart kunlari Qarshi shahrida kikboksing bo'yicha o'tkazilgan O'zbekiston championatida 7251-harbiy qism kontrakt asosidagi harbiy xizmatchilaridan kichik serjant Murodjon Ergashev 3-o'rinni, oddiy askar Shaxboz Rashidov 2-o'rinni va oddiy

kechyapti. Hozirgi vaqtida qo'riqlanayotgan xalqaro aeroportlar chegaralangan hudud perimetrlariga va aeroport ishchi xodimlari kirib chiqish joylariga raqamli kuzatuv kameralari o'rnatalmoqda. Bu texnik qo'riqlash vositalari qator afzallikkлага ega. Shuningdek, qo'riqlanayotgan obyekting barcha hududlari haqida to'liq

ma'muriyatlari ishchi guruhlari bilan yig'ilish bo'lib o'tdi, unda O'zbekiston Respublikasi va boshqa hamkor davlatlar aviatsiya ma'muriyatlari o'rtaida aviatsiya xavfsizligi masalalari bo'yicha bir qator o'zaro anglashuv protokollari imzolandi.

«Ma'naviy yuksalish va vatanparvarlik kuni»da ko'plab ma'naviy-vatanparvarlik va madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilyapti. Jumladan barcha harbiy qismlarda tez-tez kitob yarmarkalari tashkil qilinadi. Mazkur yarmarkalarda harbiy xizmatchilar o'z tashabbusiga ko'ra harbiy qism kutubxonalariga yangi kitoblar, ya'ni o'zbek va jahon adabiyotining eng sara asarlarini sovg'a qilishadi. Yosh harbiy xizmatchilar konsertlar, muzeylar, teatrлar bo'lishadi, tarixiy obidalar, yodgorliklarni tomosha qilishadi.

Shaxsiy tarkibning ijtimoiy muhofazasini ta'minlash borasida ham bir qator tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, mamlakat mudofaa quraditini mustahkamlashga munosib hissa qo'shan, jangovar-xizmat va ilmiy faoliyatda muayyan natijalarga erishgan 91 nafar harbiy xizmatchining farzandlariga Qo'shin qo'mondonligi tomonidan yurtimizdagli oliy ta'lif muassasalariga o'qishga kirishda imtiyoz beradigan tavsiyanomalar topshirildi.

Sherzod BARATOV,
II V Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlari qo'mondonligi Tarbiyaviy va mafkuraviy ishlarni tashkillashtirish bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.



xizmatchilariga «Alvon beret» kiyish huquqini berish bo'yicha sinovlar o'tkazildi. Sinov natijalariga ko'ra, 7254-harbiy qism harbiy xizmatchisi kichik serjant Odiljon Soliyev ushbu huquqni qo'lga kiritdi. 2023-yil davomida 115 nafar harbiy xizmatchi fuqaro aviatsiyasi xavfsizligini ta'minlash bo'yicha o'quv markazida tayyorgarlikdan o'tkazildi.

askar Aziz Muydinov 3-o'rinni egalashdi. Navoiy shahrida bo'lib o'tgan armrestling bo'yicha mamlakat championatida oddiy askar Riyan Amerxanov o'z vazn toifasida faxrli 3-o'rinni qo'lga kiritdi. Bu ro'yxatni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Sohaga zamonaviy axborot texnologiyalarni va innovatsion g'oyalarni tatbiq etish jarayoni jadallik bilan

ma'lumot olish, xizmat o'tash sifatini nazorat qilish va boshqa ko'plab qulayliklar yaratadi. Bundan tashqari, hozirda qo'shin tasarrufidagi harbiy qismlar zamonaviy raqamli radioaloqa vositalari va simli aloqa bilan to'liq ta'minlangan.

Hamkorlikdagi dasturlar doirasida Turkiya, Janubiy Koreya, Xitoy va Qozog'iston davlatlari aviatsiya



 FAXRIYLAR – FAXRIMIZ

QAT'IYAT – MUVAFFAQIYAT GAROVI

«Inson qaysi sohada ishlamasin, eng avvalo, o'zini, o'zligini tanimog'i va unga berilgan vazifani chin yurakdan bajargani holda jamiyatga naf keltirmog'i lozim», deydi iste'fodagi mayor Salomat G'aribshoyeva. Zero, lavhamiz qahramoni o'zi ham umrini fidoyilikda o'tkazish bilan birga, shogirdlarini ham shunga undab kelgan.

Ichki ishlar organlaridagi xizmat faoliyatini 1994-yili Uzun tumani IIB Xorijga chiqish, kelish va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi inspektorligidan boshlagan Salomat G'aribshoyeva 18 yil davomida Sariosiyo, Sherobod va Denov tumanlarida bo'lim boshlig'i lavozimlari ishladi. Ayol kishi uchun rahbarlik oson ish emas. Ammo qat'iyatlari qahramonimiz bu ishni yaxshi uddaladi. Farzandlarini munosib tarbiyalashga harakat qildi.

– Ayniqsa, Sariosiyo voqealari ro'y bergan yillar ko'p holatlarni boshdan o'tkazdik, – deb eslaydi S. G'aribshoyeva. – O'sha vaqtida Kish-tut, Zavar, Zinchop kabi tog'li qishloqlar aholisi Sariosiyo, Sherobod, Qumqo'rg'on tumanlariga ko'chirildi. Ularning hujjati yo'qlariga hujjat rasmiylashtirdik, imkonli boricha, aholiga yordam berishga harakat qildik.



Xizmat davrida hamkasblariga namuna bo'lgan qahramonimiz 2012-yilda mayor unvoni bilan pen-siyaga chiqdi. Ammo shundan keyin ham shogirlariga o'z tajribalarini o'rgatishdan to'xtamadi.

– Hozirgi kunda Sariosiyo tumani IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'limi boshlig'i bo'lib faoliyat yuritayotgan podpolkovnik Sadbag Jumayeva, Oltinsoy tumani IIBda ishlayotgan mayor Baxtiyor Nazarovlar mening shogirdlarim sanaladi. Ularga shu kasbning sirlarini ipidan ignasigacha o'rgatganman. Hozir ham ularning faoliyatidan xabardor bo'lib turaman, – deydi qahramonimiz.

Salomat opa oilada ham namunali ona, uybekasi sifatida 2 nafar o'g'ilni voyaga yetkazdi. To'ng'ich farzandi Shuhrat Bozorov yilqichilik fermasi rahbari, ikkinchisi Yodgorbek esa Bosh prokuraturada faoliyat yuritmoqda. Ularga hozir ham qat'iyatli, halol, to'g'riso'z bo'lismi, o'z ustida izlanishdan to'xtamaslik kerakligini uqtiradi.

Nafaqat shogirdlari va farzandlarini, balki bugun nabiralarini ham elga nafi tegadigan, g'ayratli insonlar bo'lib yetishishga undaydigan Salomat opa singari fidoyi ayollar bor ekan, yurtimizda fidoyi farzandlar yetishib chiqaveradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.

Surxondaryo viloyati.

 OBOD VA XAVFSIZ MAHALLA

HAMKOR TASHKILOTLAR BILAN

Samarqand viloyatida jino-yatchilikni «mahallabay» usulida jilovlash asosida o'tgan yil mobaynida olib borilgan profilaktik ishlar natijasida mahallalarning 44,1 foizida jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi. Tezkor-qidiruv tadbirdilari natijasida jinoyatlarning 90,7 foizi fosh etildi. Bundan tashqari, shaxsiy tarkib o'rtaida korrasjon holatlarning oldini olish bo'yicha olib borilgan ishlar natijasida xodimlarining tashabbusi bilan 21 holatda pora berish jinoyati aniqlandi.

Hamkor tashkilotlar bilan birgalikda tashkil etilgan ishchi guruh

tomonidan viloyatda yoshlar, ayollar va voyaga yetmaganlar o'rtaida sodir etilgan jinoyatlarning kelib chiqish sabab va sharoitlari kunlik tahlil asosida muhokama qilinmoqda. Shuningdek, xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektorlar tomonidan mahallalardagi vakillar hamkorligida ayollar bilan individual tarzda suhbatlashilib, ularga ijtimoiy, maishiy hamda psixologik yordam ko'rsatilmoqda.

Kriminogen vaziyat og'ir bo'lgan 198 ta mahallaga viloyat, shahar va tuman ichki ishlar organlari rahbar xodimlari bilan bir qatorda, prokura-



tura, milliy gvardiya xodimlari, hokimliklar vakillari biriktirilib, mahallalarni jinoyatdan xoli hududga aylantirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirdilar amalga oshirilishi belgilandi.

Ushbu harakatlar xalqimiz turmushi tinch va xavfsiz bo'lishiga qaratilgan. Sektor rahbarlari, hamkor tashkilotlar hamda jamoatchilik vakillari bilan birga huquqbazarliklarning oldini olish, mahallalarni jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish borasida olib borilayotgan ishlarni yanada jadallashtiramiz.

Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda «agar davlat tayanadigan asosiy

ustun qonun bo'lsa, uning kuchini amalda namoyon etadigan eng samarali tizim bu – ichki ishlar sohasi, desak, ayni haqiqat bo'ladi».

Biz bundan keyin ham xalqimiz osoyishtaligini saqlash, jinoyatchilik va huquqbazarliklarga qarshi murosasiz kurashish, kadrlar salohiyatini mustahkamlash, ichki ishlar organlarini haqiqiy xalqchil tizimga aylantirish uchun barcha kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etamiz.

Jahongir SA'DULLAYEV,
kapitan.

Samarqand viloyati.

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT QUDRATI, YUKSAK G'URUR VA SADOQAT TIMSOLIDIR!

(14-yanvar – Vatan himoyachilari kuni)

Milliy armiya mamlakat qudratini belgilab beradigan asosiy omillardan biridir. Binobarin, Qurolli Kuchlar ona Vatan sarhadlari daxlsizligini ta'minlaydi, dunyodagi eng aziz ne'mat – tinchlik va osoyishtalikni saqlaydi. Bu, albatta, yurtini asrab-ardoqlash, himoya qilishni o'zining muqaddas burchi deb bilgan har bir kishiga cheksiz g'urur va iftixor bag'ishlaydi.

Jahon tamadduniga bemislissa qo'shgan turkiy zaminidan ko'plab mohir sarkardalar yetishib chiqqan. Ayniqsa, Jaloliddin Manguberdi, Sohibqiron Amir Temur, Zahridin Muhammad Bobur kabi buyuk ajdodlarimiz o'z zamonasida nafaqat odil hukmdor, ayni chog'da, yengilmas qo'shinlarning qo'mondonlari ham bo'lishgan. Ular qo'shining yuksak jangovar holatini ta'minlash bo'yicha juda ko'p ibratli ishlarni amalga oshirishgan.

Ayniqsa, ulug' bobokaloniimiz Amir Temuring jangovar qo'shini o'zining strategik va taktik mahorati bilan o'sha davrning eng mukammal va kuchli armiyasi hisoblangan. Xususan, qo'shin tarkibi, boshqaruv shakli, uning jang paytidagi harakatlarni hatto dushman sinchilari tomonidan ham e'tirof etilgan.

Istiqlol yillarida milliy armiyamiz yoshlarning irodasini toplaydigan, ularni o'z Vatani va xalqiga sadoqat ruhida tarbiyalaydigan chinakam jasorat va matonat maktabiga aylandi. Farzandlarimizning harbiy xizmatga, boshqacha aytganda, el-yurt tinchligi va osoyishtaligi, osmonimiz musaffoligi, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga bo'lgan qiziqish va intilishi kuchaydi, Vatan himoyachisi bo'lish har bir yigitning e'zgu

maqsadiga aylandi.

Alohidha mammuniyat ilata'kidlash lozimki, so'nggi yillarda mamlakatimizda olib borilgan keng ko'lamli islohotlar natijasida milliy armiyamizning qiyofasi va salohiyati tubdan o'zgardi.

Xususan, 2022–2026-yilarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasida yurtimiz mudofaa salohiyatini yanada mustahkmalash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish ustuvor yo'naliishlardan biri etib belgilandi. Ushbu strategiya asosida Qurolli Kuchlarning tezkor boshqaruvini amalga oshirish, milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnikalar bilan ta'minlash bo'yicha kompleks das-turlarni tayyorlashda bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan harbiy mojarolar xususiyatlari, qo'shinlarni yanada rivojlanishining ustuvor yo'naliishlari hisobga olinmoqda. Bu bora-da eng zarur qurol-aslaha va anjomlarni sotib olish, ularni yangi jangovar tizimlar bilan birgalikda qo'llash va takomillashtirib borish masalasi davlatimizning doimiy e'tiborida. Shuningdek, harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askar va ofitserlarning xizmat sharoitlari tubdan yaxshilamoqda. Qolaversa, harbiy xizmatchilarining intellektual salohiyatini yuksaltirish, aholi, birlinchi navbatda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriyalarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi ishlar izchil davom ettirilyapti.

qadar yaqinlashtirish choralar ko'rilmoxda.

Milliy armiyamizni zamonaviy qurol-yarog' va harbiy texnikalar bilan ta'minlash bo'yicha kompleks das-turlarni tayyorlashda bugungi kunda dunyoning turli mintaqalarida kuzatilayotgan harbiy mojarolar xususiyatlari, qo'shinlarni yanada rivojlanishining ustuvor yo'naliishlari hisobga olinmoqda. Bu bora-da eng zarur qurol-aslaha va anjomlarni sotib olish, ularni yangi jangovar tizimlar bilan birgalikda qo'llash va takomillashtirib borish masalasi davlatimizning doimiy e'tiborida. Shuningdek, harbiy qism va poligonlardagi infratuzilma, askar va ofitserlarning xizmat sharoitlari tubdan yaxshilamoqda. Qolaversa, harbiy xizmatchilarining intellektual salohiyatini yuksaltirish, aholi, birlinchi navbatda, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlarimiz faxriyalarini ijtimoiy va huquqiy jihatdan muhofaza qilishni kuchaytirish borasidagi ishlar izchil davom ettirilyapti.

Harbiy sohada olib borilayotgan e'tiborga molik ishlar, keng ko'lamli islohotlar besamar ketmayotgani kishini quvontiradi, albatta. Xususan, O'zbekiston armiyasi 2023-yilda dunyodagi eng kuchli armiyalar reytin-

Bugungi kunda O'zbekiston Qurolli Kuchlari mamlakatimiz xavfsizligi va barqarorligini, sarhadlarimiz daxlsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan, harakatchan va puxta qurollangan qudratli kuchga aylandi, deb aytishga barcha asoslarimiz bor.

**Shavkat MIRZIYOEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti,
Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni.**



**gida 145 davlat o'rta-sida 62-o'rinni egalladi.
Mazkur reyting «Global Firepower» xalqaro kompaniyasi tomonidan tuzib chiqildi.**

PwrIndx – kuch indeksi bo'yicha tuzilgan ushbu reytingning o'ziga xosligi shundaki, u qanchalik past bo'lsa, mamlakat shunchalik kuchli armiyaga ega hisoblanadi. Hozircha hech bir davlat 0,0000 harbiy kuchning maksimal ko'rsatkichiga erishmagan. O'zbekiston 1,0692 indeksini oлган. Bu Markaziy Osiyo davlatlari orasidagi eng yuqori ko'rsatkichdir.

O'tgan yilning oktabr oyida AQSHning «News & World Report» nashri ham o'z tadqiqot natijalarini e'lon qildi. Unga ko'ra, mamlakatimiz armiya qudrati bo'yicha 87 davlat o'rta-sida 18 o'rinni egalladi. Bu reytingda Rossiya, AQSH va Xitoy yetakchilik qilgan. Qo'shnilarimizdan faqat Qozog'iston reytingga kiritilgan. Nashrning yozishicha, armiyalarning qudrati global so'rovda qatnashganlarning fikr-mulohazalari asosida baholangan.

Vakillarimiz, ayniqsa, keyinги yillarda o'tkazilayotgan ko'plab xalqaro miqyosdagagi nufuzli harbiy musobaqlarda faxrli o'rnlarni egallab kelishayotgani ham quvonarli hol. Jumladan, yurtimiz harbiy-

lari Xalqaro armiya o'yinlari, «Kembriya patruli» va boshqa shu kabi yirik harbiy-sport musobaqlarida salmoqli yutuqlarni qo'lga kiritishmoqda.

Shu kunlarda yurtimizning barcha hududlarida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil topganining 32 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan «Yangi O'zbekiston armiyasi – mamlakat qudrati, yuksak g'urur va sadoqat timsolidir!» shiori ostida «Vatanparvarlik oyligi» ko'tarinki kayfiyatda o'tkazilmoqda. Oylik doirasida «Vatanparvarlik karvoni» festivallari, davra suhbatlari, uchrashuvlar, turli viktorina va sport musobaqlari tashkil etilmoqda. Harbiy xizmatchilar, soha faxriyalar, elimizning taniqli kishilari, yoshlar ishtirokida o'tayotgan ushbu tadbirlar Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Xalq va armiya – bir tanu bir jondir» degan ezgu tamoyilning amaldagi yorqin ifodasi o'laroq namoyon bo'layotir.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda milliy armiyamiz mamlakatimiz qudrati, yuksak g'urur va sadoqatimiz timsonga aylanib ulgurgan. Zotan, Vatanimiz, xalqimizga sadoqatli yigitlar xizmat qilayotgan Qurolli Kuchlarimiz mustaqilligimizning, tinch va osoyishta, farovon hayotimizning ishonchli qalqonidir.

**Kamol OLLOYOROV
tayyorladi.**





TAJRIBA VA MAHORAT UYG'UNLIGIDA


Toshkent shahar IBBB Huquqiy statistika va tezkor-hisob ma'lumotlar boshqarmasida har doimgidek ish qizg'in. Xodimlarning qo'liqo'liga tegmaydi. Ushbu yo'nalishda faoliyat yuritish, hujjatlar va ma'lumotlar bilan ishslash kishidan tajriba, mahorat hamda o'ta sinchkovlikni talab etadi.

O'z kasbining ustasi bo'lgan bosh mutaxassis, kapitan Ramiz Nasritdinov hamkasbleri – yetakchi mutaxassis, podpolkovnik Yelena Romanova, katta inspektor, katta serjant Alisher Tursunov hamda kichik inspektor, safdar Sa'dulla Akramovlar bilan jazoni o'tab chiqqan, muqaddam sudlangan shaxslarning hujjatlarini o'rganarkan, hatto oddiy jihatni ham ko'zdan qochirishmaydi.

Kapitan R. Nasritdinov xodimlarga tegishli topshiriqlarni bergach, mazkur yo'nalishda hisobi yuritiladigan kitoblarning

yuritilishini tekshirish uchun tuman IIOFMBlarga yo'l oldi. U hujjatlardagi ayrim kamchiliklarni bartaraf etish borasida mas'ul xodimlarga tavsiyalar berib, ro'yxatga olinadigan kitoblarning to'liq yuritilishi ta'minlanishi nazoratdan o'tkazdi.

– Ishimizning o'ziga xos murakkab tomonlari bor,
– deydi kapitan R. Nasritdinov. – Xususan, vazifamiz avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini shakllantirish, yuritish, rivojlantirish, ma'lumotlarni qayta



ishlash, jamlash, saqlash, taqdim etish va masofadan olish imkoniyatlarini yaratishdan iborat.

Xizmat faoliyatida samaradorlikka erishishda oilaning ham o'rni muhim. Ramiz Nasritdinovning onasi Zulkumor opa o'g'lining duogo'yi. Turmush o'rtog'i Naimaxon esa uning ishongan suyanchi. Ular oila qurbaniga ham 10 yildan oshdi. Bu juftlik farzandlari Azamat, Muhamarram va Muhammadyusuf larning baxtu kamolini ko'rish niyatida ularni tarbiyalab voyaga yetkazishmoqda.

Ko'pgina vaziyatlarda mazkur boshqarma xodimlari tomonidan yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanib jinoyat ochayotgan xodimlar kelib o'z minnatdorligini bildirib ketishadi. Bu ham ular olib bora-yotgan xizmatning besamar ketmayotganligidan dalolatdir.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.

Toshkent shahri.



PROFILAKTIK TADBIRLAR NATIJASI

Kogon shahri Buxoro viloyatining kriminogen vaziyat murakkab bo'lgan hududlaridan biri hisoblanadi. Chunki bu yerda sanoat korxonalari va tashkilotlar anchagini. Ko'pgina ishchi-xizmatchilar qo'shni shahar va tumanlardan qatnab ishslashadi. Shunday bo'lsa-da, jinoyat va huquqbazarliklar avvalgi yillardagilarga nisbatan ancha kamaygan. Bunga shahar IIB xodimlarning kunu tun olib borayotgan samarali xizmati bois erishilmoqda.

– Shaxsiy tarkibning bir yoqadan bosh chiqarib, ahillik va hamkorlikda xizmat olib borishi, o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlar natijasi o'laroq, o'tgan yilda amalga oshirilgan

ishlar anchayin salmoqli bo'ldi, – deydi shahar IIB boshlig'i o'rnbosari, mayor Erkin Qobilov. – Raqamlarga murojaat qilladigan bo'lsak, yil davomida 217 ta jinoyat qayd etildi. Bu raqam o'tgan yilga qaraganda 8,5 foizga kamaygan. Sodir etilgan jinoyatlarning 25,3 foizi korxona va tashkilotlar hisobiga to'g'ri keladi, 35,4 foizini esa mahallalarda sodir etilgan jinoyatlar tashkil etadi. Profilaktik ishlar



o'z vaqtida olib borilgani tufayli voyaga yetmaganlar, ayollar hamda ishsizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar keskin kamaydi. Shu bilan bir qatorda, mast holda hamda jamoat joylarda sodir etilgan jinoyatlar ham kamayib, fosh etish ko'rsatkichi yaxshilandi.

Eng xavfli jinoyat turiga aylanib ulgurgan kiberjinoyatchilikning oldini olish bo'yicha ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Shahardagi har bir mahallaning telegram guruhlariga kiberjinoyat sodir etilgan

holatlar va videoroliklar tashlab borilmoqda. Aholining firibgarlik qurbaniga aylanib qolmasliklari uchun xonardonma-xonodon yurilib, profilaktik suhbatlar o'tkazilmoqda hamda bukletlar tarqatilmoqda. Qolaversa, bunday jinoyatlar mahallalarda muhokama qilinib, kelib chiqish sabablari chuqr tahlil etilmoqda.

Bo'limning shaxsiy tarkibi asosiy qismi yoshlardan iborat. Sohaning o'ziga xos sir-asrorlarini ularga o'rgatishda ustoz-murabbiylarning o'rni benihoya kattadir. Shuningdek, xodimlarning kasbiy va jangovar mahoratini oshirish, jismonan baquvvat, ma'nан barkamol bo'lishlari uchun ma'naviyat va ma'rifat darsi, jangovar, jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlari muntazam ravishda o'tkazilib kelinyapti. Xodimlar sport musobaqalari va turli tadbirlarda ham faol.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

Buxoro viloyati.

 УРОК ДУХОВНОСТИ И ПРОСВЕЩЕНИЯ

АРМИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА – СИМВОЛ МОГУЩЕСТВА СТРАНЫ, ВЫСОКОЙ ГОРДОСТИ И ПРЕДАННОСТИ

«Наш мужественный и благородный народ по праву гордится своими отважными сыновьями – храбрыми воинами, верными священной присяге».

**Шавкат МИРЗИЁЕВ,
Президент Республики Узбекистан,
Верховный Главнокомандующий Вооруженными Силами.**

14 января в Узбекистане широко отмечается День защитников Родины. В этот день каждый из нас еще глубже осознает ценность таких качеств, как патриотизм, доблесть, отвага.

За годы независимости армия Узбекистана прошла славный путь. В результате масштабных реформ вырос ее авторитет и потенциал. Мобильные, всесторонне оснащенные Вооруженные Силы являются щитом, способным надежно защищать суверенитет и территориальную целостность страны.

Оборонная доктрина республики демонстрирует открытость внешней политики, развитие конструктивных военно-политических отношений с за-

рубежными государствами. При этом, учитывая напряженную геополитическую обстановку в мире, одним из приоритетных направлений Стратегии развития Нового Узбекистана определено дальнейшее укрепление обороноспособности государства, приумножение мощи Вооруженных Сил. В связи с этим кардинально пересмотрены структура и задачи силовых компонентов, усовершенствована система управления войсками. Продолжается оснащение армии современными образцами военной и специальной техники, развивается оборонная промышленность.



В структуре МВД Узбекистана функционируют формирования Каравульных войск и Войск по обеспечению безопасности в международных аэропортах, выполняющие ответственные функции по охране и обеспечению безопасности особых объектов.

Важнейшим условием дальнейшего развития национальной армии является повышение профессиональной подготовки военнослужащих, особенно командного состава. Реформирована Академия Вооруженных Сил, создана прочная основа для того, чтобы она стала локомотивом военной науки в стране. Высокую эффективность показывает система подготовки офицеров Гене-



рального штаба, аппаратов управлений военных округов, командиров бригад.

Налажена регулярная подготовка в низовых звеньях. В частях и подразделениях проходят смотры «За боевое знамя Амира Темура», «Лучший батальон (дивизион)», имеющие важное значение в совершенствовании выучки военнослужащих, укрепление воинских традиций.

Задачи Узбекистана – это занимать призовые места в престижных состязаниях, добиваться значительных успехов на Международных армейских играх, в «Кембрийском патруле».

Военнослужащие Минобороны, МВД, МЧС, СГБ, Национальной гвардии, достигающие высоких результатов в интенсивных испытаниях, отмечаются знаком отличия «Довюрак жангчи».

В целях стимулирования женщин-военнослужащих, сотрудниц министерств и ведомств, где предусмотрена военная служба, учрежден нагрудный знак «Тумарис».

В центре внимания руководства страны вопросы социальной поддержки военнослужащих. Ежегодно тысячи семей

военных обеспечиваются жильем, их дети получают льготные направления для поступления в высшие образовательные учреждения. Жены военнослужащих обучаются профессиям и трудоустраиваются.


Следует отметить, что в стране создана уникальная система военно-административных секторов. Руководители органов власти всех звеньев принимают активное участие в повседневной деятельности войск. Возводятся военные городки, совершенствуется их инфраструктура. Особое направление работы – воспитание молодежи на примере жизни и деятельности великих полководцев Жалолиддина Мангуберди, Сахибирана Амира Темура, Захириддина Мухаммада Бабура. Детско-юношеское движение «Ватан таянчи», военно-патриотические сборы для молодежи «Школа мужества» вносят существенный вклад в укрепление у подрастающего поколения любви и преданности Родине.

Сила нашей армии – в солидарности с соотечественниками, реализации принципа «Народ и армия едины».

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

MA'RIFAT BO'STONI

UYAT



Uyat eng shafqatsiz qonun-dan ham kuchliroq, qudratli-roqdir. Qonun faqat ko'zi tush-ganda, shubha paydo qilgani-dagina jinoyatchining qo'lini ushlaydi, yo'lini to'sadi. Uyat esa hamisha odobsiz, axloqsiz jinoyatchining tepasida turib, nojo'ya ish qilish uchun qo'l ko'targani qo'yaydi.

Abdulla QAHHOR,
O'zbekiston xalq yozuvchisi.

O'ZLIKNI YO'QOTMOQ...

Bu olamda yo'qotishlar ichidagi eng og'ir yo'qotish insonning o'zligini yo'qotishidir. Odamzod tafakkur va ehtiros, ruhiyat va imon dunyosida ya-shaydi. U yuragidagi e'tiqod bilan, ishonch bilan tirik va butun. O'zlikni yo'qotmoq ana shu olamdan judo bo'lmoodir, inson imoratidagi ruknlarning – ustunlarning sinmog'idir.



Erkin VOHIDOV,
O'zbekiston Qahramoni.

VIJDON VA IMON



Hech qayerda hech qaysi insonlar jamiyatni faqat moddiy manfaatlarga suyanibgina, faqat moddiy ehtiyojlarini qondiribgina hayot kechira olmaydi – inson hayotining saodatmand bo'lmog'i uchun vijdon va imon uning hayotida ustuvor bo'lmog'i kerak.

Odamlarni odam qiladigan, jamiyatni jamiyat qiladigan qudrat – vijdon, insof, diy-onat,adolat va haqiqatning barqarorligi.

Ozod SHARAFIDDINOV,
O'zbekiston Qahramoni.

Tarixdan ma'lum: Vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilar – uyg'oq qalbli ziyorolar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar. Mamlakatimiz o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga kirayotgan hozirgi paytda bizga jadid bobolarimiz kabi g'arb ilm-fan yutuqlari bilan birga, milliy qadriyatlar ruhida tarbiya topgan yetuk kadrlar suv bilan havodek zarur.

Shavkat MIRZIYOYEV

ONA TILI



O'zbek tilining kelajagi porloq. Bundan besh asr muqaddam hazrat Navoiy universal adabiy o'zbek tilini yaratgan edi. U tilimizni fors, qadimgi turkiy, arab va boshqa tillar hisobiga behad boyitgan edi. So'ng biz bu bebafo xazinadan foydalanishni o'rinalay olmadik. Endi bu xazina qayta kuch olishi, o'zining neorennessans davriga kirishi kerak. Bu neorennessans yangi avlod asarlarda yuzaga chiqadi va ustivor bo'ladi. Umidvorlikka asoslar yetarli. Men onasini tahqirlashga, zavolga tashlashga yo'il qo'yadigan farzandni tasavvur qilolmayman. Ona tili o'z nomi bilan ona-da...

Ibrohim G'AFUROV,
O'zbekiston Qahramoni.

MA'NAVIY OMILLAR

Iqtisodga mamlakat salohiyatini belgi-lovchi omil, deb qaralishi to'g'ri. Mamlakat mudofaasining mustahkamligi, xalq dastur-xonining to'kinligi, xalqning yashash darajasining yuqoriligidagi nima yetsin?

Ammo mana shu darajani saqlab turish uchun ham xalqning ma'naviyati yuqori bo'lishi kerak. Osmono'par, naqshinkor saroylar tanazzulga uchrashi, ganju-gavharlarning ohori ketishi, boyliklar to'zishi mumkin.

Ko'ngildagi gavharlar-chi, yaraqlaganicha turavermaydimi? Es-lab ko'ring, ulug' ustoz Alisher Navoiyning «Kecha kelgumdir debon» satri bilan boshlanuvchi g'azalini necha yoshin-gizda yod olgandingiz? Hanuz bir satriga putur yetdimi? Nega hanuz g'azalni ayтиb boshlaganingiz bilan ko'zingiz charaqlab ketadi? Bu ma'naviyat, bu qon bizga ota-bobolarimizdan o'tgan. Zamona ming o'zgarsin, tomirdagi merosiq qon o'zgarmaydi. Shuning uchun ham «Yoshlar unday bo'lib ketdi» kabi nolishlarga men uncha qo'shilmayman. Chunki yoshlar osmondan tushgani yo'q. Ular o'zimizning bolalarimiz.



«Sen menden aqlliroy, botirroy, mardroqsan», deb keng fe'llik bilan oldinga o'tkazadigan va bu fe'l bilan faqat o'zi-da yutadigan, o'zida oldinga ketadigan — Sharq!

«Elhi kuch bilan itoatga ko'ndirsang ham kuch bilan ilm otiga mindirolmaysan», — deydi yapon faylasufi Konfusiy.

Bular zanjir halqalariday bir-biri bilan bog'liq hodisadir. Biz mustahkam ma'naviy omillar bilan-gina iqtisodiy omillarimizni yaratamiz. Saqlaymiz.

Halima XUDOIBERDIYEVA,
O'zbekiston xalq shoiri.

ELDA BO'L SIN



Kimdir xushnud davlatining dong'i bilan, Kimlar sarxush ibodatli tongi bilan, Odam aziz bu dunyoda ongi bilan, Xush niyat qil, dilda bo'lsin, tilda bo'lsin, Tilaganing eng avvalo elda bo'lsin.

O'z yeringni yomon desang, yaxshing qani? Qadriga yet, poyingdag'i gul, chamanni, Shu Vatan-ku, aziz qilgan sanu manini, Tuprog'in o'p, dala, dashtu cho'lda bo'lsin, Qut-baraka eng avvalo elda bo'lsin.

Begonalar bog'laringda bog'bon bo'imas, Nolish bilan mushkullaring oson bo'imas, Yuz yil tilan, ter to'kmasang, to'rvang to'imas, Alloh bersin, senda bo'lsin, menda bo'lsin, Duo qilgin, eng avvalo elda bo'lsin.

Qadring uchun qo'lni qo'lga bog'lab yasha, Erking uchun o'zni jangga chog'lab yasha, Yuz yil yasha, dushman ko'nglin dog'lab yasha, Elim degan mard yarog'i qo'lda bo'lsin, Tinch-omonlik eng avvalo elda bo'lsin!

Mahmud TOIR,
O'zbekiston xalq shoiri.

UCHINCHI SEKTORDA

MUAMMOLAR HAL ETILMOQDA

Qoraqalpog'iston Respublikasining Amudaryo tumani Turkmanistonning Dashoguz viloyati bilan chegaradosh. Tuman aholisi 208 mingdan ortiq. Markazi Mang'it shahri bo'lgan tuman 49 ta makon va ovul fuqarolar yig'ini, shaharcha tipidagi posyolkalardan iborat.

Ayni kunda uchinchi sektor hududida 12 ta shaharcha, ovul va makon fuqarolar yig'ini mavjud bo'lib, ulardag'i o'n mingdan ortiq xonadonda 54 ming nafardan ortiq aholi istiqomat qilib kelmoqda.

Sektor hududining infratuzilmasini yaxshilash borasida «Jumur ovul», «Durunki», «Boyovul», «Bo'z yop», «Oq oltin» makon va ovul fuqarolar yig'inlaridagi ichki yo'llar joriy ta'mirlandi, «Tor yop – Qilichboy» yo'lining 1,02 km qismiga asfalt yotqizish ishlari amalga oshirilmoqda. Qolaversa,

sektor mas'ullarining tashabbusi bilan hududdagi 10 ta ovul va makonning har biridan aholi yurishi qiynalayotgan va bolalar muktabga borishga noqulaylik tug'dirayotgan ikkitadan ko'chaga tosh-shag'al yotqizish ishlari olib borilyapti.

Tuman 3-sektori kotibi, kapitan Muhriddin Rahimovning aytishicha, o'tgan yili sayyor qabullarda aholidan kelib tushgan murojaatning 275 tasi qanoatlantirilib, 42 tasi bo'yicha tushuntirishlar berildi. Qolgan 57 ta murojaat yuzasidan o'rganish ishlari olib borilmoqda.

Sektor hududida ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, nogiron va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'lgan oilalarni zarur dori-darmon vositalari, nogironlik aravachalari, reabilitatsiya vositalari bilan ta'milash yuzasidan 40 nafar fuqaroga amalii yordam berildi.

O'rganishlar davomida daromadi kam, ishsiz a'zolari bo'lgan, shuningdek, daromad topishga, kasb o'rganishga harakat qilayotgan 466 ta xonadon aniqlanib, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida 357 nafar fuqaroga 2,5 mlrd. so'mlik kredit mablag'i ajratildi. Bundan tashqari, 95 nafar ishsiz fuqaroning bandligi ta'milandi.

– Aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ishsizlikni bartaraf etish yo'nalishida amalga oshirilgan ishlar o'zining ijobiy natijasini beryapti, – deydi 3-sektor rahbari, tuman IIB boshlig'i, podpolkovnik Jamalladdin Yusupov. – Natijada o'tgan yilda tumanda barcha yo'nalishlar bo'yicha jinoyatlar soni 4,4 foizga kamayishiga erishildi. 15 ta fuqarolar yig'inida jinoyatlar soni kamaygan bo'lsa, 5 ta makon va ovul fuqarolar yig'inida umuman jinoyat sodir etilishiga yo'l qo'yilmadi.

**Azamat PIRNIYAZOV,
o'z muxbirimiz.
Qoraqalpog'iston Respublikasi.**



EHTIYOT BO'LING: FIRIBGAR!

CHAKKI YURSANG – DAKKI YERSAN

Halol topilgan rizqda baraka bo'ladi. Halol mehnat ortidan kun ko'radigan kishi esa halovatda yashaydi. Tili bilan dili boshqa, o'zgalarni aldab, oson boylik orttirish payida bo'lgan kimsalar esa, oxir-oqibat boshi berk ko'chaga kirib qolganini sezmay qoladi.

Sho'rchi tumanidagi «Egarchi» mahallasida yashovchi Hotam Babatov (ism-sharifi o'zgartirildi) bir marta jinoyat sodir etib, 6 yil muddatga ozodlikdan mahrum etildi. Belgilangan jazo muddatini to'liq o'tab, ozodlikka chiqqandan keyin ham panjara ortida o'tgan umri unga saboq bo'lmadi.

...Hotam tunu kun pul topish haqida o'ylardi. Bir kuni qo'shnisi Alijondan avtomashinasini garovga qo'yib, unga foizga 20 million so'm miqdorida qarzga pul olib berishini iltimos qildi. Bunga ko'nmagan qo'shnisining ishonchiga kirish uchun uni rosa avradi. Bu pulga qo'y olib sotib, biznes qilishini va topgan foydadan 50 foiz unga ham ulush berib turishini aytib, nihoyat, ishontirdi. Alijon unga 20 million so'm pul qarz olib berdi.

Oradan ancha vaqt o'tdi. Na qo'ydan, na biznesdan kelgan daromaddan darak bo'lavermagach, Alijon Hotamning hiylasiga laqqa tushganini fahmlab, pulini qistadi. 20 million so'mni o'z ehtiyojlariga sarflab yuborgan Hotam esa yana yolg'on to'qiy boshladi. Mashinasini garovdan chiqarib berish

uchun hamsoyasini 900 AQSH dollari qarz berib turishga ko'ndirdi, biroq...

Qilmishlaridan xulosa chiqarmagan Hotamga odamlarni aldab, mo'may daromad topish yoqib tushdi. Bir xatosini tuzatmay, ikkinchisiga qo'l urdi. Bu safar xususiy korxona ochib, bog'dorchilik va poliz mahsulotlarini yetishtirish maqsadida og'zaki kelishuv asosida 40 hektar yer maydonini olib, ish boshladi. O'sha kunlarning birida eski tanishi Sobirni uchratib qoldi va u 50 sotix ekin maydoni sotib olmoqchi ekanidan xabar topdi. Buni eshitib oq eski odatiga ko'ra ish ko'rdi. Ya'ni, hech ikkilanmay, tanishiga o'zining 50 sotixli bog' qilingan yer maydoni borligini, agar u xaridor bo'lsa, sotixini 1000 AQSH dollaridan sotishni taklif qildi. Ular shu yerning o'zida savdolashib, Hotam o'ziga tegishli bo'lmagan yerni 45 ming AQSH dollariga sotishga kelishdi.

«Qahramon»imiz kelishilgan pulni Sho'rchi tumanidagi «Toshkent» kafesida olayotganida huquq-tartibot idoralari xodimlari tomonidan qo'lga olindi.

**Avaz RAHIMOV,
mayor.
Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.**

Surxonaryo viloyati.

► ЭКСПЕРТНО-КРИМИНАЛИСТИЧЕСКАЯ СЛУЖБА

ОНИ ВИДЯТ ТО, ЧТО НЕ ЗАМЕЧАЮТ ДРУГИЕ

На номер «102» позвонил житель города Андикана, представившийся Абдукодиром Саматовым (имя и фамилия изменены). Срывающимся от волнения голосом он сообщил, что, воспользовавшись отсутствием домочадцев, в его квартиру проник неизвестный, взломал сейф и похитил крупную сумму денег.



На место происшествия выехала оперативно-следственная группа, в составе которой был старший эксперт-криминалист эксперто-криминалистического отдела

УКД ОВД по городу Андикану капитан Жамшид Жалилов.

– В ходе осмотра места происшествия следов проникновения в квартиру постороннего

человека обнаружено не было, – рассказывает капитан Ж. Жалилов. – Дверцы сейфа были отогнуты с помощью металлического предмета, скорей всего монтировки, так, что можно было просунуть руку внутрь. На одной из полок лежала барсетка. Потерпевший заявил, что деньги находились в ней. С помощью ключа сейф был открыт. Его внутренние и внешние стенки тщательно исследовали в целях обнаружения отпечатков пальцев подозреваемого. Но никаких следов, кроме отпечатков пальцев самого хозяина, обнаружено не было.

Просмотрены записи с камер наружного наблюдения, расположенных как на доме, где проживал А. Саматов, так и на близлежащих торговых точках. Незнакомых людей замечено не было. Оперативники пришли к

заключению, что это инсценировка.

После того, как А. Саматову предъявили неопровергимые улики, он сознался в содеянном. Как оказалось, он занял у сестры на ремонт квартиры 5 тысяч долларов США, а потом проиграл их в азартные игры. Сестра, заметив, что ремонт не ведется, потребовала деньги обратно. Тогда Саматов и решил провернуть «дело» с фиктивной кражей.

Капитан Жамшид Жалилов считает своим наставником майора Тохиржона Ахмаджонова, который щедро передавал опыт и учил тонкостям работы эксперта.

Сейчас он сам наставник

молодежи. Его ученики, старшие лейтенанты Мухаммаджон Абдурахмонов и Миржалол Мадаминов, служат в подразделениях эксперто-криминалистической службы в районных отделах внутренних дел.

Жамшид признается, что каждый выезд на место происшествия – особенный.

– Преступники все больше совершенствуются, – говорит капитан Ж. Жалилов. – Мы тоже не стоим на месте.

Борис КЛЕЙМАН,
соб. корр.

Андижанская область.



► МОЛОДЕЖЬ – НАШЕ БУДУЩЕЕ

НАЙТИ ВЕРНЫЙ ПОДХОД

Герой нашего очерка Гайрат Игамов осуществляет деятельность по профилактике правонарушений среди студентов Навоийского государственного горно-технологического университета.

Старший инспектор ОПП СОБ ОВД города Навои капитан Г. Игамов в органах внутренних дел уже шестой год. За плечами у него факультет русской филологии педагогического института.

... Асрор родом из Нурабада. Студент университета снимает квартиру в городе Навои. О том, что он питает определенные чувства к сокурснице Наргизе, знали многие. Однажды Асрор увидел Наргизу с Авазом, студентом-заочником. Не на шутку приревновав девушку, решил разобраться с тем парнем. Узнав о его замысле, капитан Гайрат Игамов нашел те самые слова, которые помогли незадачливому влюбленному трезво взглянуть на ситуацию, разобраться, насколько объект увлечения разделяет его чувства.

Инспектор напомнил о последствиях хулиганства, о том, что это ляжет пятном


на репутации молодого человека. Вскоре Асрор все свое внимание переключил на учебу. Сейчас он на четвертом курсе. При встрече с капитаном с иронией вспоминает те безрассудные планы молодости и благодарит его за то, что отвел от неверного шага.

Инспектор в рамках полномочий содействует студентам-заочникам в размещении в общежитии, проверяет соблюдение установленных правил проживания, контролирует посещаемость. В работе со студентами капитану помогают педагогические навыки. «Важно найти подход к молодежи, которая представлена разными регионами страны», – считает он.

В ходе бесед, в том числе среди преподавателей и технического персонала университета, разъясняет нормы Закона «О противодействии коррупции». Совместно с администрацией вуза регулярно организовывает профилактические мероприятия на правовую тематику.

Махлиё ХОЛОВА,
соб. корр.

Навоийская область.



YOSHLAR — KELAJAK BUNYODKORI

USTOZIMNING O'GITI

Turmush o'rtog'i MDH mamlakatlaridan biriga ishlash uchun ketganida, Mahfuza ikki farzandi bilan qo'shni ko'chadagi onasining uyida yashay boshladi. U har kuni uyga kelib, hamma narsa joyida ekanini tekshirib ketardi. Kunlardan birida eriga tegishli «Spark» avtomashinasining g'ildiraklari o'rindiq, rul va boshqa qismlari yo'qligini ko'rib, darhol Shahrixon tumani IIBga murojaat qildi.

— Tergov-tezkor tadbirlari davomida «Spark» avtomashinasidan 40 million so'mlik ehtiyyot qismlari o'g'irlangani aniqlandi, — deydi Andijon viloyati IIB huzuridagi Tergov boshqarmasi katta tergovchisi, kapitan Dilzodbek Abdumatalov. — Shu ko'chaning bir necha joylariga o'rnatilgan tashqi kuzatuv kameralari qaydari sinchiklab ko'zdan kechirildi. So'nggi vaqtarda «Nexia-2» avtomashinasi videoqaydlarga tushib qolgan edi. U bir necha kun tungi mahalda o'g'rilik sodir etilgan manzilga kelgan. Ekspert-kriminalistlar yordamida avtomobilning davlat raqamini aniqlashga muvaffaq bo'lindi. Ma'lum bo'lishicha, mashina qo'shni ko'chalardan birida yashovchi 20 yoshi



Sardor Abdullayevga (ism-shariflari o'zgartirildi) tegishli ekan.

Tezkor xodimlar S. Abdullayevning uyiga kirib kelganida yigit sarosimaga tushib qoldi va oxiri aybini tan oldi.

— Hoshim akaning xorijga ketgani, rafiqasi esa onasi bilan yashayotganini eshitib, avto-

mashinadan ehtiyyot qismlarni yechib olib, ularni sotish fikri tug'ildi, — deydi S. Abdullayev. — Bu ishni bir o'zim uddalay olmasdim, shuning uchun do'stlarim Nabijon va Baxtiyorni ham jalb qildim. O'marganlarimizni sotganimizdan so'ng tushgan pulni teng taqsimlab olishimizni aytdim. Yigitlar rozi bo'lishdi. Qo'shni ayol farzandlari bilan onasining uyiga ketganidan so'ng bir oz kutib turib, keyin hovliga kirdik. Avtomashinadan ehtiyyot qismlarni shoshilmay yechib oldik, ertalab esa ularni mashina bozoriga olib borib, bir tanishimizga topshirdik.

Dilzodbek Abdumatalov IIV Akademiyasini tamomlab, uch yil Shahrixon tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasida tergovchi bo'lib ishladi. Hozirgi lavozimida 2023-yil boshidan buyon xizmat qilib kelmoqda.

— Shahrixon tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi boshlig'i, podpolkovnik Boqibillo Najimov mena ustozlik qilgan, — deydi kapitan D. Abdumatalov. — Ustozim o'z tajribasi va bilimlarini beminnat o'rgatdi. Har doim: «Tergovchi qonunni bilishi va uni qo'llay olishi kerak», deya takrorlashdan charchamasdi.

Boris KLEYMAN,
o'z muxbirimiz.

Andijon viloyati.

XOTIRA — MUQADDAS

Toshkent shahri



Suratda: Mirzoanvar Haydarovning turmush o'rtog'i Naimaxon Haydarova.

Yashnobod tumani IIOFMB tashabbusiga ko'ra Yangi yil bayrami munosabati bilan «Tirik xotira» deb nomlangan ma'naviy va ma'rifiy tadbir tashkillashtirildi. Tadbir doirasida Sharof Rashidovning o'g'li Ilhom Rashidov, general-mayor Islom Sattarovning rafiqasi Zoya Sattarova, Mirzoanvar Haydarovning turmush o'rtog'i Naimaxon Haydarova va Vahobjon Usmonovning oila a'zolari holidan xabar olindi va ular bayram bilan tabriklandi.

Xalqimizning jasoratli farzandlarining yurti uchun amalga oshirgan ishlari va odamiylik jihatlari hozirgi avlodning ma'nani yetuk va barkamol voyaga yetishida o'rni beqiyos. Shunday ekan, bu kabi yurt o'g'lonlarining nomini abadiylashtirish va ularning oila a'zolarini e'zozlash muhim ahamiyat kasb etadi.

O'z muxbirimiz.

FAXRIYLAR—FAXRIMIZ

Jizzax viloyati



Suratda: (chapdan) tuman IIB Tashkiliy bo'linmasi navbatchilik qismi katta navbatchisi, mayor Rustam Xushvaqtov, tuman IIB JXX HPB katta inspektori, kapitan Samad Yakubov, tuman IIB huzuridagi Tergov guruhi surishtiruvchisi, leytenant Jahongir Xolboyev, iste'fodagi mayor Abduaziz Muhammadiyev.

Mirzacho'l tumani Ichki ishlar bo'limida hech bir ma'naviy-ma'rifiy tadbir soha faxriylarisiz o'tmaydi. Mazkur jarayonda ular yosh xodimlarga o'z tajribalarini so'zlab berishadi, shuningdek, xizmat intizomi va qonuniylikni mustahkamlash yuzasidan maslahatlarini ayamaydilar.

O'z navbatida IIB shaxsiy tarkibi qutlug' sanalar munosabati bilan faxriylarni yo'qlab turishadi, ular ishtirokida turli musobaqalar uyushtiriladi. Ma'lumot o'rniда aytish kerak, 2023-yil mobaynida keksa avlod vakillari qatnashgan 20 dan ortiq tadbirlar tashkil qilindi.

O'z muxbirimiz.

Suratda: tuman

IIB JXX HPB katta inspektori, kapitan Samad Yakubov hamda tuman IIB Faxriylar kengashi raisi, iste'fodagi podpolkovnik Shirinboy Boliqulov.



BIZNING SUHBAT

HOTAM QIZIQ – USTAZODA ASKIYACHI

Askiya topqirlik, hozirjavoblik, nozik did va madaniyat, so'zamollik, teran bilim va samimiyat bilan tomoshabinni kuldirish san'atidir. Askiya faqat o'zbek xalq og'zaki ijodigagina xos bo'lib, ko'proq Farg'onan vodiysida ommalashgan. Azal-azaldan Marg'ilon, Qo'qon, Andijon shaharlarida askiya ustalari yashab, ijod qilishgan. Bayramlarda, to'y-hashamlarda latifa-yu payrovlar aytilib, xalqimizga yaxshi kayfiyat ulashgan.

Bugungi suhbatochimiz – ustazoda san'atkor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Hotamjon Hakimjonov bilan aynan ushbu san'at turining o'ziga xosligi, uni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar va o'zining ijodiy faoliyati haqida fikr almashdik.

– Hotamjon aka, siz askiya va qiziqchilik san'atining ulug' uestozlari ko'rgan, ular bilan birga ijod qilgan va duo olgan insonsiz. Avvalo bolaligingiz va sizni san'at olamiga boshlab kirgan uestozlaringiz haqida gapirib bersangiz.

– Juda to'g'ri ta'kidladin-giz, mening birinchi baxtim shuki, Marg'ilon shahrida san'atkorlar oilasida dunyo-ga kelganman. Otam Xaliljon Hakimjonov san'at kishisi edi. Tog'am Oxunjon qiziq Huzurjonovga esa ortiqcha-ta'rif berishimning hojati bo'lmasa kerak. Onam rahmatli ham san'atsevar ayol bo'lgan. Men ana shunday ijodiy muhitda katta bo'ldim. Uyimizda ko'plab cholg'u asboblari turgani uchun esimni taniganimdan boshlab cholg'u asboblariga qiziqqanman, ularni bir-bir chalib ko'rganman. Keyin-keyin doira chalishga mehrim ortib, shu cholg'u asbobini tanladim.

Maktabga bor-gach to'garakka qatnay boshla-dim. San'at sirlarini o'rgatgan birlinchi ustozim shu to'garak rahbari Xolmat Qurbonov bo'ladi.

Maktabda gi to'garaklardan ke-yin Marg'ilon shahar markaziy madaniyat uyida faoliyat ko'rsatuvchi «Nurxon» xalq teatriga qiziqishim ortdi. Dastlab tomoshabin bo'lib borgan bo'lsam, keyinchalik shu guruhga havaskor bo'lib qo'shildim. Mazkur xalq teatrinda Yusufjon Qiziq Shakarjonovning farzandlari – Zaynobiddin Yusupov hamda Madaminjon Yusupovdek

ulug' uestozlarni uchratdim va ularning etagini tutdim.

Doirachi bo'lganim uchun bayram va to'y-hashamlarda xalq xizmatini qilib yurganman. Yosh bo'lsam ham Jo'raxon Shodmonov, Murodjon Ahmedov kabi uestoz san'atkorlar bilan birga ishlash nasib etdi. 1974-yilda Marg'ilon shahar madaniyat uyiga rasman ishga kirdim. Shundan so'ng ijodiy faoliyatim yanada rivojlanib ketdi.

– Xalqimizda «San'atning nonini yeish qiyin», degan gap bor. Haqiqatan ham shunday deb o'laysizmi?

– Albatta, shunday. Nima ga deysizmi? Masalan, men askiyachiman. Odamlar meni ko'rib, beixtiyor kulishni istaydi. Askiya va latifa eshitib, kayifiyatini ko'targisi



paytlarimda ham, ko'chada muxlislar «Yangisidan bormi?» deb qoladi. Shunda bir zumga tashvishni chekkaga surib, ularni kuldirib, yana yo'llimda davom etib ketaveraman.

– Sizni telekanallarda, turli bayram tadbirlarida doim marhum Mamasiddiq Sherayev bilan birga ko'rardik. Sizlar birgashib askiya qilganingizda, oldingizga tushadigan odam yo'q edi. U kishi bilan ijodiy aloqalaringiz haqida gapirib bersangiz?

– Mamasiddiq Sherayev haqiqiy askiyachilar sardori

Marg'ilon shahrida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi tashkil etilayotgani haqida eshitgan edik.

– Bilasiz, 2014-yili askiya insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida YUNESKOning reprezentativ ro'yxatiga kiritilgan. Shu bois mazkur so'z san'atiga nafaqat O'zbekistonda, balki butun dunyodagi mutaxassislar qiziqish bildiradi. Ammo yurtimizda askiyachilar soni juda kam, barmoq

bilan sinagudek qolgan. Endi bitta muammo

– ana shu asrlardan-asrlarga oshib kelayotgan askiya san'atini saqlab qolish va rivojlantirish kun tartibiga chiqib kelayotgan edi. Buni o'z vaqtida bilgan muhtaram Yurtboshimiz 2023 - y il 11-iyul kuni «Respublika milliy askiya va qiziqchilik san'atini

yanada rivoj-

lantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorini qabul qildilar. Mazkur qaror bilan Marg'ilon shahrida Madaniyat va turizm vazirligi tizimida davlat muassasasi shaklida Yusufjon qiziq Shakarjonov nomidagi respublika askiya va qiziqchilik san'ati markazi tashkil etilgani ma'lum qilindi. Endilikda ushbu san'at turining ilmiy asoslarini yaratish, o'quv-qo'llanmalar

ishlab chiqish, «ustoz-shogird» an'analarini rivojlan-tirish, iste'dodli yoshlar-ni izlab topib, tarbiyalash, ularning ijodiy salohiyatini qo'llab-quvvatlash aynan mazkur markaz tomonidan amalga oshiriladi. Hozir bu borada dastlabki qadam-lar qo'yilgan. Ishlab chiqil-gan yo'l xaritasiga asosan, ayni kunda markazda jam-langan vodiylilik qiziqchi-lar mamlakatimizning turli hududlarida gastrol-konsert dasturlarini namoyish qilib yurishibdi.

– Hotamjon aka, gaze-tamizning aksariyat mushtariylari ichki ishlar organlari xodimlari va ularning oila a'zolaridir. O'z o'rnida, soha vakil-lari orasida ham sizning ashaddiy muxlislarингiz juda ko'p...

– Men ichki ishlar organlari xodimlarining xizmatiga doim yuqori baho beraman, ularga hurmatim cheksiz. Sababi shuki, ular doim el-yurtimiz tinch bo'lsin, odamlar osoyishta yasha-sin, deb yelib-yugurishadi. Hamma yaxshiliklarning boshi esa ana shu tinchlik-osoyshtalikda. Yurtimizda tinchlik-osoyshtalik hukm surgani uchun bayramlar, konsertlar, to'y-tomoshalar bo'lyapti. Xotirjam yashab, ijod qilyapmiz. Bu tinchlik va osoyshtalikka o'z-o'zidan erishilmaydi. Mana, uzoqqa bormaylik, shu dekabr oyida, izg'irinli kunlarda ijodiy safar bilan poytaxtga ikki-uch marotaba borib-keldim. Havo qattiq sovuq, izg'irin bo'lsa ham yo'llarda ichki ishlar organlari xodimlari o'z vazifalarini mardonavor ado etishyapti. Nima uchun? Albatta, biz fuqarolarning xotir-jamligimiz uchun sovuqni sovuq, tunni tun demay tik oyoqda turib, xizmat qilishmoqda. Shu sababli qayerdaki ularni ko'rsam duo qilaman. Hatto yo'lda YPX xodimlari to'xtatishganida ham, ayrimlarga o'xshab e'tiroz bildirmay, «otangizga rahmat» deb minnatdorligimni bildirib ketaman.

Fursatdan foydalanib, bar-chacha yurtdoshlarimizni kirib kelgan yangi yil bilan mubo-rakbod etaman.

– Mazmunli suhbat uchun tashakkur.

**«Postda» muxbiri
Abduvosit SIDIQOV
suhbatlashdi.**



keladi. Shunday ekan, men dan yaxshi kayfiyat ilinjida turgan odama xo'mrayib o'tib ketolmayman. Chunki bu mening kasbim. Shu kasb orqali xalq meni tanidi, tan oldi va hurmat qilyapti. Nega men ularga ters burilip ketishim kerak?! Hatto shunday vaziyatlar bo'la-diki, o'zimning tashvishim, muammolarim bilan yurgan

edi. Juda so'zamol, hozirjavob askiyachi edilar. Meni ham katta davralarga, bayram-tomoshalariga, konsertlarga u kishi yetaklab borgan. Ustoz bilan 30 yildan ziyod birga aka-ukadek bo'lib, samarali ijod qildik. Xalqimizga yaxshi kayfiyat ulashdik. Ammo Mamasiddiq Sherayevning ijodi, hayoti uning shogirdlari timsolida davom etadi.

ФОТОРАКУРС

В БЛЕСКЕ ПРАЗДНИЧНЫХ ОГНЕЙ



Всюду царит новогоднее настроение. Тысячи мерцающих огоньков, нарядные елки приглашают окунуться в атмосферу волшебства и чуда, посмотреть развлекательные программы, встретиться с любимыми сказочными персонажами, получить поздравление от Деда Мороза.

Чтобы ничто не омрачило жителей и гостей столицы, общественный порядок надежно обеспечивают сотрудники ГУВД города Ташкента.



FAOLIYATGA NAZAR

Huquq-tartibot organlari xodimlarining xizmat faoliyatini sportdan ayricha tasavvur qilib bo'lmaydi. Zero, yurtimiz sarhadlarini himoya qilish, tinchlik va osoyishtalikni saqlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish soha xodimlaridan jasurlik va dovyuraklikdan tashqari, jismoniy va jangovar tayyorgarligi yuqori darajada bo'lishni talab etadi. Bunda, shubhasiz, IIV «Dinamo» Jismoniy tarbiya-sport jamiyatining o'rni beqiyos.

Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, O'zbekistonda «Dinamo» jamiyatining birinchi sport seksiyalari 1926–1927-yillarda Toshkent shahrida ochilgan. Unda dastlab o'q otish tiri, boks sport zali faoliyat yuritgan. Ayni paytda esa «Dinamo» JTSJ o'z tarkibida qariyb 116 ming nafar jamiyat a'zosini, 376 ta jismoniy tarbiya jamoasini birlashtirgan. Bundan tashqari, sport kurashlari bo'yicha ixtisoslashtirilgan Olimpiya zaxiralari maktabi ham faoliyat yuritib kelmoqda.

Alovida e'tirof etish kerakki, Armen Bagdasarov, O'tkir Haydarov, Muhammadqodir Abdullayev, Sergey Mixaylov, Rustam Saidov, Bahodir Sultonov, Aleksandr Doxturishvili, Artur Taymazov, Vitaliy Smirnov, Abdulla Tangriyev, Rishod Sobirov, Elmurod Tasmuradov, Ixtiyor Navro'zov, Magomed Ibragimov, Mo'minjon Abdullayev, Rashid Qurbonov, Hasanboy Do'smatov, Abdumalik Xalakov, Darya Latisheva, Ilhom Bahromov, Bahodir Jalolov, Shahobiddin Zoirov singari dinamo-chi-sportchilar mamlakat terma jamoalari safida Vatanimiz sha'nini munosib himoya qilgani qalbda faxr tuyg'usini uyg'otadi. Qolaversa, «Dinamo» JTSJ Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarining 10 nafar g'olib, 25 nafar sovrindori, Osiyo o'yinlarining 48 nafar g'olib, 82 nafar sovrindori, qit'a va jahon championatlari ning 95 nafar g'olib, 134 nafar sovrindorini tayyorladi. Birgina 2016-yilda Rio-de-Janeyroda bo'lib o'tgan yozgi Olimpiya va Paralimpiya o'yinlarida 9 nafar dinamochi-sportchi g'olib va sovrindorlar orasidan o'rinn oldi.



Umuman, o'tgan davr mobaynida 111 nafar xalqaro toifadagi sport ustasi, 432 nafar sport us-tasi, 2205 nafar



«DINAMO» NING SHONLI YO'LII

sport us-tasiga nomzod, 4934 nafar birinchi toifadagi sportchi tayyorlandi. 41 nafar sportchi va 12 nafar murabbiy davlat mukofoti va faxriy unvonlar bilan taqdirlandi. «Dinamo» JTSJ 2000, 2004, 2008, 2012-Olimpiada o'yinlari yakuni

bo'yicha erishilgan yutuqlari uchun «Eng yaxshi sport jamiyat» deb e'tirof etildi.

2023-yilning 1-iyun kuni o'tkazilgan «Dinamo» JTSJning navbatdagi XVII konferensiyasida jamiyatning oxirgi besh yillik faoliyati ko'rib chiqildi, rahbar organlar, rais va uning o'rinosarlari saylandi. 20-iyun kuni Adliya vazirligi



tomonidan «Dinamo» jamiyatining Ustavi ro'yxatga olinib, nomi «O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi «Dinamo» jismoniy tarbiya-sport jamiyatiga o'zgartirildi.

Ko'plab sportchi va murabbiylarning erishgan yutuqlari davlatimiz tomonidan yuqori baholanib, munosib taqdirlangani yoshlarga g'ayrat-shijoat bag'ishlamoqda. Jumladan, bokschi Bahodir Jalolov «Mustaqillik», «Fidokorona xizmatlari uchun» ordenlari, «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» faxriy unvoni va boshqa mukofotlar bilan taqdirlangan. Erkin kurashchi Bekzod Abdurahmonov «Shuhrat» medali va «O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sportchi» faxriy unvoni, bokschi Tursunoy Rahimova «Jasorat» medali bilan mukofotlangan. Bunday misollarni yana davom ettirish mumkin.

Nihoyasiga yetgan yilda «Dinamo» jamiyat tashkil etilganining 100 yilligi munosabati bilan Rossiyaning Qozon shahrida o'tkazilgan musobaqalarda vakillarimiz ham sambo va jangovar sambo bo'yicha ishtirok etdi. 16 nafar harbiy xizmatchi va xodimdan iborat terma jamoamiz 5 ta oltin, 2 ta kumush va 4 ta bronza medallarini qo'lga kiritdi va umumjamaa hisobida uchinchi o'rinni egalladi.

Bugungi kunda «Dinamo» JTSJ Respublika kengashi stadionida har kuni ming nafardan ortiq shug'ullanuvchilar yunon-rum kurashi, erkin kurash, ayollar kurashi, boks, dzyudo, sambo, suzish, qo'l jangi, ushu, o'q otish, triatlon bo'yicha shug'ullanib kelmoqda. Shuningdek, Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya, Davlat xavfsizlik xizmati, Prezident Davlat xavfsizlik xizmatining xodim va harbiy xizmatchilari ham jismoniy va jangovar tayyorgarligini oshirmoqda.

Erkinjon QAYUMOV,
«Dinamo» JTSJ raisi o'rinosarlari.
Sherzod ABDUSAMADOV,
o'z muxbirimiz.

MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI!

SHE'RIYATGA
HAVASMAND

Saidalixon so'lism Farg'onan vodiysida tug'ilib, voyaga yetgan. U muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgach, hayotini Vatan himoyasi yo'lida bag'ishlashga ahd qildi. Bugungi kunda kichik serjant Saidalixon Yoqubjonov IIV Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha qo'shinlarining Samarqand shahridagi alohida batalyoni maxsus vazifalarni bajaruvchi safarbarlik vzwodida shartnoma asosida xizmat qilyapti.

Vzvod shaxsiy tarkibining har bir kuni soatma-soat taqsimlangan. Tez-tez jangovar topshiriqni bajarishga to'g'ri kelmasligi mumkin. Lekin bu ularning bo'sh qolishlarini anglatmaydi. Ko'p vaqtleri o'quv mashg'ulotlarga va o'q otish mashqlariga sarflanadi. Saidalixon ham safdoshlari qatori o'quv-mashg'ulot bazasida turli vaziyatlarda harakat qilish taktikasini pishitadi. Uning mashg'ulotlar jayronida egallagan amaliy ko'nikmalari kimningdir hayotini qutqarib qolishda, qonunbzurni zararsizlantirishda o'ta ahamiyatli. Bunday vaziyatlarda har bir soniya muhim va qadrlı. Shu bois qahramonimiz qo'l jangi bilan muntazam shug'ullanib, jismoniy mahoratini oshirib boradi.

Jangovar do'stlari uni havaskor shoir sifatida ham bishladi. Batalyon rahbariyati 2020-yilda unga «Ilk qadam» deb nomlangan she'riy to'plamda bir qancha she'rлari nashr etilishida yordam berishdi. Yakuniga yetgan yilda esa Saidalixonnning Vatanga muhabbat, burchga sadoqat, qadr-don uyi, oilasi haqidagi she'rлari almanaxda chop etildi.

Lavhamiz qahramonining san'atga, adabiyotga, xususan she'riyatga mehr qo'yishi bezigza emas. U ziyorilar oilasida kamolga yetdi. Otasi milliy musiqa asboblari chaladi. Onasi esa maktab o'qituvchisi. Quyida havaskor shoirning ijod namunalardan birini e'tiboringizga havola etamiz.

Zamira BOLTAYEVA,
o'z muxbirimiz.

Samarqand viloyati.

O'ZBEKISTONIM

O muqaddas O'zbekistonim,
Chamanzorim, bog'-u bo'stonim.
Ko'z tegmasin malohatingga,
Fido bo'lsin senga bu jonim.

Aylanayin ko'rkan bog'ingdan,
Bulutlarga yondosh tog'ingdan.
Har daqqaq asrayin seni
Past niyatli yovdan, yog'iyan.

Tinch, musaffo osmoning uchun,
Xizmatingga shayman kun-u tun.
Mehrim haqqi, hurmatim haqqi,
Ushbu she'rim ilindim bugun.

DIL TORINI CHERTGAN TARONA


*Kelasanmi derdim, xayrashar chog',
Kelaman, deyarding sekin iymanib.
Tilimning uchida hanuz shu so'roq,
Hanuz yuragimni aylaydi mayib.*

Oddiy so'zlar bilan bitilgan, ammo ko'ngilga yaqin ushbu taronani ko'pchiлик tinglagan bo'lsa kerak. Ammo uning asl ijrochisi ko'plab muxlislar uchun noma'lum edi.

Radiorejissyor, qo'shiqchi Akbarali Ochilovning «Kelasanmi, derdim» qo'shig'i san'atkori ijob etgan eng yorqin ijod namunalardan biri, desak, mubolog'a bo'lmaydi. Qo'shiq matnini To'lagan To'xtayev yozgan.

Toshkent viloyatining Yangiyo'l shahrida tug'ilgan Akbarali Ochilov muktabda o'qib yurgan vaqtlaridayoq qo'shiqlari yoza boshlagan. San'atga bo'lgan qiziqish uni Toshkent san'at institutiga yetakladi. 1979-yilda «Toshkent radio uyi»da Qurbonali Usmonov rahbarligida faoliyat yuritgan Akbarali Ochilov O'zbekiston radiosining «Bolalar va o'smirlar muharririyyati» bo'limida ko'plab shogird-larga soha sir-asrorlaridan saboq beradi.

Uning qo'shiqlari 1980-yillarda radioda yangray boshlagan va tinglovchilar qalbini zabit etgan. «Yulduzingni ber, osmon» filmi uchun uning «Kelasanmi, derdim» qo'shig'i saundtrek sifatida tanlab olinadi. Filmda bu ashulani O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Karim Mirhodiiev ijob etadi. Ijodkor bu voqeani shunday eslaydi:



– Bir kuni kinorejissyor Farid Davletov filmga bir qo'shiq kerak, deb qoldi. Shunda yangi tayyor bo'lgan ana shu ashulani taqdim etdim. Keyin film prem-yerasiga taklif qilishdi. U yerda yarim soat gitarada ashula kuyladim. Kino haqiqatdan ham yaxshi chiqqan edi. Men xursand bo'lib, Karim Mirhodiievni chin dildan tabrikladim.

Akbarali Ochilovning O'zbekiston radiosini fonotekasidan o'rinnegallagan qo'shiqlari inson ko'nglidan kechadigan injaytuyg'ular haqidida. Ularni tinglab to'ymaydi kishi. U mashhurlik uchun kuylamadi. Hayotda nimadandir ta'sirlansa, qo'liga gitara olib, qo'shiq yozishga kirishardi.

Qo'shiqning qanoti bor. Qushdek parvoz qiladi, ezbilik va do'stlik ularshadi. Vaqt, masofa bilmaydi, xalq bisotiga aylanib boraveradi. Bu qo'shiqni Muzaffar Mirzarahimov, «Eldido» guruhi, Milena Madmusayeva kabi yosh xonandalar ham sevib ijob etishgan.

Madina QAHHOROVA,
o'z muxbirimiz.

KELASANMI, DERDIM

*Bugungiday ko'kdan yog'ilarkan nur,
Nurafshon bog'larda uchrashar edik.
Ko'ngilda bir ajib halovat, huzur,
Huzurbaxsh oqshomlar ajrashar edik.*

*Kelasanmi, derdim xayrashar chog',
Kelaman, deyarding sekin iymanib.
Tilimning uchida hanuz shu so'roq,
Hanuz yuragimni aylaydi mayib.*

*Biz yurgan yo'llarni birga jamlasak,
Borib kelish mumkin oyga piyoda.
Lekin bag'rimizda ko'ngil jonsarak,
Endi bu gaplardan kimga ne foyda?*

*O'sha bog'da yana uchrashib nogoh,
Erta kelasanmi, kelaqol, desam,
Sog'inchlar bag'ringni o'rtasa-da, moh,
Kelaman, demaysan, kelging kelsa ham.*



O'QUV MASHG'ULOTI

ELEKTRON TIZIM ORQALI

Xorazm viloyati IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish boshqarmasida elektron axborot tizimidagi yangiliklar, ichki migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish, xorijiy fuqarolarni hisobga olish va yurdoshlarimizga xorijga chiqish hujjatlarini rasmiylashtirish yo'naliishlari bo'yicha o'quv mashg'uloti o'tkazildi.

Boshqarmaning hududiy bo'linma va guruhlari mas'ul xodimlari qatnashgan mashg'ulotda xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'Imagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasida doimiy yashashi yuzasidan hujjatlarni rasmiylashtirish tartibiga kiritilgan o'zgartishlar hamda chet ellik fuqarolarga yaratilgan qator qulayliklar yuzasidan ham tushuntirishlar berildi.

– Ilgari xorijiy fuqarolarning O'zbekistonda doimiy yashash uchun topshirgan hujjatlari 128 kun ichida ko'rib chiqilgan bo'lsa, endilikda ushbu muddat 68 kun etib belgilandi, – deydi viloyat IIB M va FRB boshlig'i, podpolkovnik Ruslanbek Matyoqubov. – Bundan tashqari, mazkur yo'naliishdagi barcha hujjatlar yig'ma jildi tegishli vazirlikka yu-



borilib, ijobjiy xulosa olingandan so'nggina xorijiy fuqaroga yashash guvohnomasi rasmiylashtirildi. Endilikda bu jarayon hududiy migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi va guruhlarining o'zida elektron tizim orqali amalga oshiriladi. Bu innovatsion yangiliklar va o'zgarishlar natijasida xorijiy fuqarolar hamda fuqaroligi bo'Imagan shaxslarga bir qator qulayliklar yaratildi.

**Xudoybergan JABBOROV,
o'z muxbirimiz.**

Xorazm viloyati.



ODAM SAVDOSI – OLAM MUAMMOSI

BESHIK KO'RMAN GO'DAK

...Shirin shahrida yashovchi Nelya (ismlar o'zgartirildi) bir necha kundan buyon farzandining tug'ilishini kutadi. Doya bilan kelishib qo'yan. Dard tutsa, tezda yetib keladi. Atayin o'z tumani Sardobadan ellik chaqirim uzoq joyga kelib, ko'zdan panada farzand ko'rishga qaror qilgan.

Nelyaga gulistonlik Salima opaxoni ko'mak berdi. Kutilmaganda homilador bo'lib qolgani qo'shmachi opaga yoqmadni. Homilador qizga kim ham qarardi. Uni fokishaxonasidan haydar solmoqchi bo'ldi. Biroq homila ancha bilinib qolgandi. Tanish shifokor orqali qizning homilasi olti oylik bo'lib qolganini bilib oldi.

«Oppog'oy» nomi bilan dong qozongan qo'sh-machining kallasi ishlab ketdi: «Axir, bolani sotsa bo'ladi-ku? O'n yoki yigirma ming dollar ishlab olsa bo'ladi. Zudlik bilan xaridor topish kerak, xolos». Nelyani alohida xonaga qamab, tashqariga chiqishni taqiladi. Bir necha bor qizlarni «abort» qilishda ko'maklashgan tanishiga qo'ng'iroq qilib uchrashuv belgiladi. Ikki ustomon rejani puxta

qilishdi. Nelya uzoqroq shahardagi kvartirada yashirinchu tug'adi. Chaqaloq shu zahoti olinadi va imi-jimida xaridorga sotib yuboriladi. Xaridorni Salimaning o'zi topadigan bo'ldi. Nelyani ham ko'ndirishdi. Hali yosh, o'ynab-kulishi kerak. Qolaversa, unga ming dollar va'da qilishdi.

Salima tanishlarini ishga soldi. Toshkentlik opa-ukaga qo'ng'iroq qildi. Sirdaryolik qo'shma-chining taklifi ularni qiziqtirib qo'ydi. Ertasigayoq Gulistonga yetib kelishdi. Shahar chetroq'idagi kafeda uchrashishdi. Chaqaloqqa chet elda xaridorlar bor ekan. Agar bir amallab Germaniyaga yetkaza olishsa, o'ttiz-qirq ming dollar pul ishlab olish mumkin. Kelushuvga ko'ra, chaqaloq tug'iishi bilan Toshkentga yetkazib berilishi, evaziga

7 ming dollar berilishi zarur. Uni chetga olib chiqib ketish, xorijliklarga sotish opa-ukaning ishi.

...Toshkent sari yeldek uchayotgan «Nexia»da Salima bag'riga go'dakni bosib olgancha mammun ketardi. Sun'iy sut bilan oziglantirilgan go'dak tinchgina uxborib berardi.

Ma'lum bo'lishicha, go'dakni Yevropaga yet-kazadigan ayolni topishgan. Yaqinda farzandli bo'lgan, o'z bolasiga hujjat rasmiylashtirgan ayol bolasini tashlab, yangi tug'ilgan chaqaloqni olib chiqib ketadi. Frankfurtda uni xaridor kutib oladi. Pulni olgach, Rossiya orqali ortga qaytadi.

Xalqaro aeroportda Salimani quchoq ochib kutib olishdi. Yangi tug'ilgan go'dakni olib, pulni berishdi. Lekin ularning xursandchiligi uzoqqa cho'zilmadi. Yerdan chiqdimi, osmondan tushdimi, tezkor xodimlar to'rt nafar shaxsning qo'lidan tutib, mashinalarga o'tqazib, olib ketishdi...

**Abdurahmon MUSTAQULOV,
o'z muxbirimiz.**

Sirdaryo viloyati.

HAYOT – MUALLIM

KO'PRIK



Aka-uka otalaridan qolgan hovlida kun kechirardi. Bir tushunmovchilik sabab oraga sovuqchilik tushib, gaplashmay qo'yishdi. Kunlar o'tgani sari o'rtadagi jarlik kattalashib borardi. Oxir-oqibat hovlining qarama-qarshi tomonlariga uy solib, yashay boshlashdi.

Bir kuni akaning eshigi taqilladi. Ostonada katta yoshli odam turardi...

– Men ustaman, ish qidirib yuribman. Balki, hovlingizda menbop yumush topilib qolar, – dedi.

– Ha, albatta. Hovlini kesib o'tgan ariqni ko'ryapsizmi? O'tgan haftada ukam kovlatdi, o'zicha hovlini ajratib, yerni chegaralab qo'ydi. Bu yerda yetarlicha taxta bor, – dedi omborxonaga ishora qilib. – Hovlini butkul ajratish uchun o'sha ariq bo'yab to'siq qurib bering.

Usta darhol ishga kirishdi. Taxtalarini olib chiqdi, o'chab kesdi, randaladi. Bu orada ohorli kiyimlarini kiyib olgan aka uyidan chiqib kelib so'radi:

– Men bozorga ketyapman. To'siq uchun yana biror narsa kerak emasmi?

– Rahmat, hamma narsa yetarli, – javob berdi usta.

Kechga yaqin shahardan qaytgan akaning jahli chiqdi. Chunki usta ariq ustiga ko'priq qurib qo'ygandi.

– Men sizga to'siq quring, degandim-ku!

– dedi aka g'azab bilan ustaga qarab.

Usta javob berib ulgurmasidan, uyidan chiqib ko'priki ko'rgan uka ular tomoniga yura boshladni. Shoshib ko'priordan o'tdi va akasini quchoqladi. Ariq qazdirgani, qo'pol muomalasi uchun uzr so'radi. Birpasda ikkovi suhabatga kirishib ketdi. Bu orada anjomlarini yig'ishtirib ketishga hozirlanayotgan ustaga «Shoshilmang, mehmonimiz bo'ling», deb taklif qildi aka. U esa:

– Rahmat, qololmayman. Men hali juda ko'p ko'priklar qurishim kerak, – dedi tabassum bilan yo'lida davom etdi...

**Feruza RAHMONQULOVA
tayyorladi.**

 SALOMATLIK SABOQLARI

**XOLESTEROL –
YURAK DUSHMANI**

Xolesterolning asosiy qismini tanamiz taomdan oladi. Quyilmalar qon tomirlarida shakllanib, arterioskleroz, yurak xuruji va qon bosimi ortishiga olib keladi. Shuning uchun jismoni faoliyat va to'g'ri parhez muhim ahamiyatga ega.

Kunlik taomnomada kamida yarim kilogramm meva va sabzavotlar bo'lishi lozim. Ular tarkibida antioksidantlar (beta-karotin, C va E vitaminlari) mavjud. Shuningdek, arteriosklerozga olib keluvchi moddalarni erituvchi folik kislotasi va B guruhi vitaminlariga boy. Ularning eng yaxshisi yashil bargli sabzavotlar va sitrus mevalardir.

HIQICHOQ TUTGANDA...

Afsuski, hiqichoqdan qutulishning shifokorlar yozib berishi mumkin bo'lgan yagona retsepti yo'q. Shu tufayli bunday hollarda xalq tabobatidan foydalanishga to'g'ri keladi. Bu usullar shunchalik oddiyki, ularni nafaqat uy sharoitida, balki ishga ketish yoki shahar tashqarisiga sayohat chog'ida ham qo'llash mumkin.


Nafasni tutib turish

Ushbu oddiy usulni nafaqat xalq tabiblari, balki shifokorlar ham tavsiya qiladi.

Nordon narsa yeish

Qizilo'ngachga tushadigan kislota hiqichoqni «kesadi», deb hisoblashadi. Bunda, albatta me'yorni saqlash lozim.

Burunni barmoqlar bilan qisish

Burunni barmoqlar yordamida qisib turib, bir stakan suvni kam-kamdan ichish lozim.

Qand iste'mol qilish

Imkon bo'lsa, bir qoshiq shakar yeb yuboring (xohishga qarab asal bilan almashtirish mumkin).

Qitiqlash

Birorta do'stingizdan sizni qitiqlashini so'rang. Bu, ayniqsa, qitiqlashdan qo'rqaqidanlar uchun qo'l keladi.

Qo'rqlik

Hiqichoqdan qutulishning eng ommabop usuli — qo'rqlikdir.

**Barmoqlarni
yordamga chaqiring**

Chap qo'lidagi bosh barmoqni o'ng qo'lning jumjilog'iga, o'ng qo'l bosh barmog'ini esa chap jumjiloqqa bosib turing.

**СКОЛЬКО МАНДАРИНОВ
МОЖНО СЪЕДАТЬ В ДЕНЬ?**

Мандарин считается одним из самых богатых полезными веществами фруктов. В нем содержатся витамины C, B₁ и B₂, бета-каротин, клетчатка, антиоксиданты.



Но даже самый полезный продукт может оказаться вредным, если съедать его в чрезмерном количестве.

При переедании может вызывать аллергические реакции, с

осторожностью следует употреблять эти фрукты людям, страдающим гастритом, так как мандарины могут раздражать слизистую оболочку кишечника и желудка.

Норма мандаринов для взрослого человека – 5-6 штук в день. Желательно распределить их на целый день и съедать порционно в течение дня, а не за один раз.

**ЕСЛИ УПОТРЕБЛЯТЬ ИХ ВМЕСТЕ...
ЯБЛОКИ И ТЕМНЫЙ ШОКОЛАД**

Фермент катехин, содержащийся в яблоках, и антиоксидант кверцетин вместе делают чудеса: укрепляют иммунитет, активизируют деятельность мозга, улучшают работу сердца и сосудов, снижают риск онкологических заболеваний.

ЗЕЛЕНЫЙ ЧАЙ И ЛИМОН

В зеленом чае содержатся катехины, которые отвечают за долголетие и крепкий иммунитет. А если вы добавите в него лимон, витамин С усиливает этот эффект в несколько раз.


ПОМИДОРЫ И ПЕЧЕНЬ

Железо, которое содержится в печени, хорошо усваивается только вместе с витамином С, и тут на помощь приходят помидоры – в них есть аскорбиновая кислота.

Перед применением посоветуйтесь с врачом.

ISH JOYIDA BAJARISH MUMKIN BO'LGAN MASHQLAR

Barchamizda «sport bilan shug'ullanish uchun vaqt juda kam», biroq shunday mashqlar borki, ularni bevosita ish joyining o'zida bajarish mumkin. Ularni bajarib, o'zingizni tetik his qilsangiz, ajab emas!

**OYOQ MUSKULLARINI
CHO'ZING**


Stulga o'tiring (oyoqlar yerda) va bitta oyog'ingizni oldinga ko'taring, ikki soniya tutib turing. Buni har bir oyog'ingiz uchun 15 martadan takrorlang.

BELNI CHO'ZING
Stulga tik o'tirib, oyoqlarni



birlashtiring. Qo'llarni tepaga ko'taring. Chap qo'lni stolga tushiring va o'ng qo'l bilan stul suyanchig'ini ushlang. O'ngga buriling va 10 soniya shu holatda turing. Harakatni boshqa yo'nalishda ham takrorlang.

**YELKALARINGIZ
CHIGILINI YOZING**
Stulda to'g'ri o'tiring, chap qo'lingizni pastdan orqaga


o'tkazing, o'ngini esa tepaga ko'tarib, yelkangiz osha orqaga o'tkazing. Qo'llarni bir-biriga chirmashtirib, cho'ziling.

BIQINLAR HARAKATI



Stulda tik o'tiring. Chap qo'lko'tarib, o'ng qo'l bilan chap tirsakni ushlang. Chap qo'lni o'ng tomoniga cho'zing, 10 soniya qimirlamay turing. Qo'llarni almashtirib, harakatni takrorlang.

**YELKALARINI
AYLANTIRING**



To'g'ri o'tiring va kuraklarni bir-biriga yaqinlashtirib, aylanma harakatlar qiling. Mashqni 12–15 marta takrorlang.

**BO'YIN MUSKULLARINI
HARAKATGA KELТИRING**


Boshingizni qo'llaringiz bilan «changallab oling». Kaftalarni peshonaga tushirib, boshni orqaga itaring. Bo'yin mushaklari bilan esa ushbu harakatga bor kuchingiz bilan qarshilik ko'rsating. Shundan so'ng kaftlarni boshning orqa tomoniga qo'ying va mashqni teskarai yo'nalishda takrorlang.

**GAVDA MUSKULLARINI
MASHQ QILDIRING**


Kreslongiz aylanadigan bo'lsa, undan foydalaniib, ushbu mashqni bajarishingiz mumkin. Tik o'tiring va oyoqlarni yerdan ko'taring, qo'llaringiz bilan stol chekkasidan ushlab oling. Gavda mushaklarini tortib, kuch bilan bir tomonдан ikkinchi tomonga aylaning.

**TOVONLARNI
AYLANTIRING**


Tovonlaringizni soat millari bo'yicha va soat millariga qarshi aylantirish orqali to'piqlarni mashq qildiring. Har bir oyoq uchun har bir yo'nalishda uch martadan takrorlang.

**СКОЛЬКО МАНДАРИНОВ
МОЖНО СЪЕДАТЬ В ДЕНЬ?**

Мандарин считается одним из самых богатых полезными веществами фруктов. В нем содержатся витамины C, B₁ и B₂, бета-каротин, клетчатка, антиоксиданты.



Но даже самый полезный продукт может оказаться вредным, если съедать его в чрезмерном количестве.

При переедании может вызывать аллергические реакции, с

осторожностью следует употреблять эти фрукты людям, страдающим гастритом, так как мандарины могут раздражать слизистую оболочку кишечника и желудка.

Норма мандаринов для взрослого человека – 5-6 штук в день. Желательно распределить их на целый день и съедать порционно в течение дня, а не за один раз.

**ЕСЛИ УПОТРЕБЛЯТЬ ИХ ВМЕСТЕ...
ЯБЛОКИ И ТЕМНЫЙ ШОКОЛАД**

Фермент катехин, содержащийся в яблоках, и антиоксидант кверцетин вместе делают чудеса: укрепляют иммунитет, активизируют деятельность мозга, улучшают работу сердца и сосудов, снижают риск онкологических заболеваний.

ЗЕЛЕНЫЙ ЧАЙ И ЛИМОН

В зеленом чае содержатся катехины, которые отвечают за долголетие и крепкий иммунитет. А если вы добавите в него лимон, витамин С усиливает этот эффект в несколько раз.

ПОМИДОРЫ И ПЕЧЕНЬ

Железо, которое содержится в печени, хорошо усваивается только вместе с витамином С, и тут на помощь приходят помидоры – в них есть аскорбиновая кислота.

Перед применением посоветуйтесь с врачом.

АТМОСФЕРА ПРАЗДНИКА

ХОРЕЗМСКАЯ ОБЛАСТЬ.

Новый год, как и по всей стране, здесь был встречен в приподнятом настроении. Праздничные мероприятия продолжаются в парках и скверах региона, даря людям море радости.

Для поддержания общественной безопасности привлечены все службы областного управления внутренних дел. Силы и средства распределены по объектам, на которых проходят массовые мероприятия. Согласно плану в сотрудничестве с другими правоохранительными органами принимаются оперативные профилактические меры. В целях обеспечения общественной безопасности выявляются и пресекаются правонарушения, случаи реализации пиротехнических средств.

Соб. корр.



На снимках: сотрудники батальона ППС УООП СОБ областного УВД на службе.

MUNAJJIMLAR BASHORATI (8 – 14-yanvar)

Qo'y. Bu hafta davomida taqdir yo'liga ta'sir qiluvchi o'zgarishlar kutilmaydi. Ammo bu davrda yuz beradigan barcha voqealarda ustida jiddiy mulohaza yuritish maqsadga muvofiqdir. So'nggi paytlarda faqat o'zingizga vaqt va e'tibor ajratib, yaqin insonlarning istak-xohish va qiziqishlari haqida unutib qo'ymadingizmi? Shularning hammasi pallasiga qo'yib, xolis xulosa chiqarishga harakat qiling.

Buzoq. Yoshi va lavozim jihatdan yuqori turuvchi tanishlar bilan munosabat qilishda ehtiyojkor bo'lib, imkon qadar xushmuomalalikni o'rniga qo'ying. Vakolatingizga kirmagan masalalarda tashabbus bildirishdan tiyiling. Bu ham ish, ham shaxsiy hayotningizga tegishli. Bu hafta vaqtincha chetdan kuzatuvchi vazifasini bajaring, bu sizga faqat foyda olib keladi.

Egizaklar. Bu davrdagi har qanday yangi tani-shuvlar foyda va omad olib keladi. Atrofdagilar bilan ko'proq munosabatda bo'lishga harakat qiling. Agar uy uchun biron narsa xarid qilish niyatida bo'lsangiz, yaxshisi bu ishni haftaning so'nggi kunlarida amalga oshirgan ma'qul.

Qisqichbaqa. Ish joyingizda raqobatga duch kelishingiz mumkin. Imkon qadar mojarov va kelishmovchiliklardan yiroq turing. Bahslashishga oshiqmang, undan ko'ra bor kuch-shijoatni oila ichidagi munosabatlarni mustahkamlashga sarflang. Kelib tushadigan barcha takliflarni mutaxassislar bilan muhokama qiling. Xatoga yo'l qo'ymaslik uchun «yetti o'lchab, bir kesish» tamoyiliga amal qiling.

Arslon. Bu hafta uchun mushkul vazifalarini re-jalashtirmang, aks holda ba'zi sabablar tufayli ularni o'zgartirishga yoki bekor qilishga to'g'ri keladi. Sizni biroz notinch va tashvishli kunlar kutmoqda. Bu davrda ikkilanish, jur'atsizlik va shubha har jihatdan sizga xalaqit qiladi.

Parizod. Dastlabki uch kun biroz og'ir kechadi. O'zaro tushunmovchilik va murosaga kelmaslik atrofdagilar bilan munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Katta ahamiyatga ega bo'lgan jiddiy loyihalarga hozircha qo'l urmaganingiz ma'qul. Mablag' sarflashda ehtiyojkor bo'ling, ularning ba'zilari omadsiz bo'lishi mumkin.

Tarozi. Siz uchun ham ruhan, ham jismonan yengillashish vaqt yetdi. Sokinlikda yoki tabiat qo'ynida ko'proq dam olishga e'tibor qarating. Biroq hordiq uchun ortiqcha sarf-xarajatga berilib ketmang, chunki bu davrda moliyaviy jihatdan biroz qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin. Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga, yon-atrofdagilar bilan xushmuomala bo'lib, ular bilan aslo bahslashmaslikka harakat qiling.

Chayon. Ko'pdan beri orziqb kutilgan imkoniyati qo'ldan boy bermaslik uchun diqqatli va sergak bo'ling. Chigal va hal etib bo'lmaydigan masalalar hech bir qiyinchiliksiz o'z yechimini topadi. Bu davrda moliyaviy jabhada tejamkor bo'lib, ortiqcha xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling.

O'qotar. Bu davr siz uchun o'ta omadli bo'lib, keskin o'zgarishlar va kutilmagan voqealarga boy bo'ladi. Rejalarini tuzishga oshiqmang, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling, negaki bu haftada kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin.

Tog' echkisi. Hafta davomida ziddiyatlarning oldini olishga harakat qiling. Yon-atrofdagilar bilan xushmuomala bo'ling. Ulkan ish rejalarini tuzishga oshiqmang, kutilmagan xaridlardan o'zingizni tiyishga harakat qiling, negaki bu haftada kasbiy sohangizga oid qiyinchiliklar yuzaga kelishi, pul yo'qotishlar kuzatilishi mumkin.

Qovg'a. Bu hafta siz uchun yoqimli lahzalarga boy bo'ladi. Yaqinlariningzidan safar taklifi yoki kutilmagan sovg'a olishingiz mumkin. Ularga e'tibor va g'amxo'rlik bilan javob qaytaring. Dam olish kunlarini salomatlikni mustahkamlashga, tashqi ko'rishni yaxshilashga va miriqib hordiq chiqarishga bag'ishlang.

Baliq. Moliyaviy mablag' sarflarini yaqinlarin-giz bilan obdan maslahatlashgan holda amalga oshiring. Lekin shaxsiy hayotga bog'liq qarorlarni mustaqil qabul qilishga harakat qiling. Sokinlik va xotirjamlik zaruratini tuysangiz, bu hafta vaqtincha ishni va oilaviy tashvishlarni bir chetga surib, o'z qiziqish va sevimli mashg'ulotlaringiz uchun vaqt ajrating.

BOLA KULSA, OLAM KULAR

Joylardagi barcha ichki ishlar organlarida, IIV tasarrufidagi ta'lim muassasalarida, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida Yangi yil bayrami tadbirlari ko'tarinki ruhda o'tkazildi. Ularda xizmat vazifasini bajarish chog'ida halok bo'lgan xodimlarning farzandlariga sovg'alar topshirildi. Shuningdek, noga-nogon bolalar ham bee'tibor qoldirilmadi.



Ayniqsa, ertak qahramonlari ishtirokidagi sahna tomoshalarida ezgulikning yovuzlik ustidan g'ala-ba qozongani kichkintoylarda unutilmas taassurot qoldirdi. Bayram tantanalariga Qorbobo va Qorqiz tashrif buyurib, bolajonlarga sovg'alar ulashishdi. Bola kulta, butun olam tabassum qilar ekan. Illohim, kirib kelgan yilimiz shodliklarga boy bo'lsin, illohim, kirib kelgan yilimiz shodliklarga boy bo'lsin!



MUASSIS:

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ICHKI ISHLAR VAZIRLIGI

Bosh muharrir –

polkovnik
Bernora SADIKOVA

Bosh muharrir o'rinnbosarlari –

mayor Azizjon FAYZIYEV
kapitan Aziza BOHODIROVA

Mas'ul kotib –

Jahongir SHAROFBOYEV
Erkin SATTOROV

Navbatchilar –

Bobomurod TOSHEV
Radik TUMPAROV

Sahifalovchilar –

Zokir BOLTAYEV

Ilhom JUMANOV

Fotomuxbirlar –

Abu KENJAYEV

Ikrom HASANOV

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Faks: 71-231-40-05.**Obuna masalalari
bo'yicha:**

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz**E-mail:** info@postda.uz

ISSN 2010-5355

Tahririyat hisob raqami
h/r 23402000300100001010.

Bank kodи 00014.

O'zbekiston Respublikasi
Iqtisodiyot va moliya
vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

Tahririyatga kelgan qo'l-yozma va suratlar egasiga
qaytarilmaydi.

Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart.

Gazeta tahririyat kompyuter
markazida terildi va sahfalandi.

«Kolorpak» MCHJ
bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: 100206
Yunusobod tumani,
Yangishahar ko'chasi 1^а-uy.

Gazeta O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan 2020-yil 13-yanvarda
0120-raqam bilan ro'yxatga
olingan.

Buyurtma №V-6.

Bosilish – ofset usulida.

Tabchimi – A3. Hajmi – 6 bosma
taboq. 49550 nuxsada chop etildi.**Obuna raqamlari:**

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ:
100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk
ko'chasi 9-uy.